

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

“TASDIQLAYMAN”

Magistratura bo'limi boshlig'i

_____ N.I.Asqarov

“ ” 2021-yil

“HIMOYAGA QO'YILDI”

Adabiyotshunoslik kafedrasи

mudiri _____ Z.Mamajonov

“ ” 2021-yil

Qo'lyozma huquqi:

UDK: _____

MAHAMADJONOVA ODINAXON XAMIDULLO QIZI

“Yusuf va Ahmad” dostonining badiiy til xususiyatlari

**120101-Adabiyotshunoslik mutaxassisligi bo'yicha magistr akademik
darajasini olish uchun taqdim etilgan**

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI

Ilmiy rahbar: f.f.d,frof.S.Mirzeyva

Andijon-2021

“YUSUF VA AHMAD” DOSTONINING BADIY TIL

XUSUSIYATLARI

Mundarija

KIRISH.....	3
I BOB. «YUSUF VA AHMAD» – JANGNOMA (romanik) DOSTON	
I.1. Dostonining yaratilishi tarixi va ilk manbalar.....	9
I.2. “Yusuf bilan Ahmad”ning jangnoma(romanik) doston sifatidagi o’ziga xos xususiyatlari.....	14
II.BOB. “YUSUF VA AHMAD “ DOSTONI SYUJETI VA MOTIVLARI	
II.1. Doston sujetining o’ziga xos qurilishi	21
II.2.Dostondagi asosiy va o’xshash motivlari.....	26
III. BOB. «YUSUF VA AHMAD” DOSTONINING TIL XUSUSIYATLARI	
III.1. Dostondagi badiiy san’atlarning estetik vazifalari.....	36
III.2. Dostonda uchraydigan xalq iboralari.....	44
III.3. Dostonda qo’llangan arxaik va shevaga xos so’zlar.....	51
XULOSA.....	68
FOYDALANGAN ADABIYOTLAR.....	71
E’LON QILINGAN ILMIY ISHLAR RO’YXATI.....	74

KIRISH

Mavzuning dolzarblii. O’zbek xalqining jahon xalqlari orasida tutgan o’rni,insoniyat tamadduniga qo’shgan hissasi xalq og’zaki ijodi na’munalarida yaqqol ko’rinadi. O’zbek folklori na’munalarini yozib olish ,tadqiq etish,nashr qilish o’tgan asr avvalida boshlangan bo’lsa-da, xalq og’zaki ijodini har tomonlama o’rganish mustaqillik sharofati bilan boshlandi. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev xalqaro baxshichilik festivali ochilishiga bag’ishlangan tantali marosimdagи nutqida ta’kidlaganidek:”...Tengsiz ma’naviy boyligimiz bo’lmish mumtoz san’atni, xalq ijodining nodir na’munalarini asrab-avaylash va rivojlantirish, uni kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish jahondagi ilg’or fikrli olimlar va san’atkorlarning, davlat va jamiyat arboblari ,barcha madaniyat ahlining ezgu burchidir”.

Taraqqiyotning muhtasham davriga qadam qo‘ygan mamlakatimizda xalqning milliy ruhiyati va ma’naviyatini o‘zida mujassamlashtirgan baxshichilik an’analari va epik asarlarni tadqiq va targ‘ib etishga alohida e’tibor berilmoqda. Zero, “Har qaysi xalqning azaliy tarixi va madaniyati eng avvalo uning og’zaki ijodi folklor san’atida, doston va eposlarida mujassam topgan bo‘lib, ular millatning o‘zligini anglash, uning o‘ziga xos milliy qadriyatları va an’analarini saqlash va rivojlantirishda bebaho manba hisoblanadi”. Ana shunday hayotbaxsh qadriyatlarni tarannum etish orqali xalqimiz ma’naviy kamolotiga xizmat qilib kelayotgan bebaho eposlardan biri keng qamrovli ozodlik va yurtga muhabbat ruhi bilan sug’orilgan xalq og’zaki ijodi na’munalaridan biri XI-XVIII asrlarda Xorazmda yaratilgan “Yusuf v ahmad “dostonidir. Unda do’stlik-birodarlik, mehr-muruvvat, qadr-qimmat, oliyjanoblik va mardlik ulug‘langan

Xalqimizning ma’naviy mulki bo’lgan dostonlar kishilarni hamisha imon-e’tiqodga, insof-diyonatga, Ona vatanni e’zozlash va uni ko’z qorachug‘iday saqlashga da’vat etib kelgan. Iste’dodli ijodkorlar tomonidan yaratilib, asrlar osha kuylanib kelingan bu ma’naviy meros eng oliyjanob his-tuyg`ularni, ezgu g’oyalarni hamisha o’z ajdodlari qalbiga jo qilib keldi va kelmoqda. Shu jihatdan

olganda dostonlar azaliy ma’naviy qadriyatlarimizning nodir namunalari bo’lib hisoblanadi.

Xalqimizning ma’naviy bisotida e’zozlangan holda saqlanib kelgan bu beba ho meros bag`ridagi poetik tafakkur va ezgu g`oyalarni istiqlol mafkurasi nuqtai nazaridan atroflicha tahlil qilish, o’sib kelayotgan avlodni uning nafosatga boy g`oyalaridan bahramand qilib, ularni el-yurt xizmatiga sadoqat ruhida tarbiyalash ishiga safarbar etishda asosiy vosita sifatida foydalanish har jihatdan zarurdir. Shu vazifadan kelib chiqqan holda o’zbek xalq dostonlari orasida o’z o’rniga ega bo’lgan “Yusuf va Ahmad” dostonini o’rganish ilmiy izlanishimizning dolzarbligini belgilaydi. Chunki barkamol yosh avlodni mard va jasur, ona Vatanga muhabbatli va sadoqatli qilib tarbiyalashda bu dostonning g`oyaviy mazmuni muhim ahamiyat kasb etadi.

Yurtimizda istiqlol sharofati bilan ma’naviy qadriyatlarimizni, xalqimizning urf-odatlari va an’analarini, boy tarixiy merosimizni asrab-avvaylash va boyitish, ularni keng targ`ib qilish va aholi ongiga singdirish, shu asosda xalqni Vatan taraqqiyotiga, demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyati qurishga qaratilgan yaratuvchilik va ijodkorlik faoliyatiga safarbar etish uchun qulay imkoniyatlar yaratildi. Ayniqsa, nomoddiy meros namunalari hisoblanmish folklor asarlarida yuksak badiiy mahorat bilan ifoda etilgan umuminsoniy g`oyalardan bugungi globallashuv, axborot almashinuvining tezlashgan bir vaqtida yosh avlod tarbiyasida foydalanish masalasi davlatimiz va Prezidentimizning qonunlarida, qaror va farmonlarida ham aks etdi.

Moddiy hamda nomoddiy madaniy meros sohasida bajaradigan ishlarimizning ijobjiy natijalari, avvalo, yoshlar kamolotida, mamlakatimiz taraqqiyotida bo’y ko’rsatishi lozimligi talab etilmoqda. Shu ma’noda qabul qilingan O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 13 yanvardagi “Alpomish” dostoni yaratilganligining 1000 yilligini nishonlash to’g`risida”gi 17-son qarorining 7-bandи hamda 2010 yil 7 oktyabrdagi 222-son qarori bilan tasdiqlangan “2010-2020 yillarga mo’ljallangan nomoddiy madaniy meros ob’ektlarini muhofaza qilish, asrash, targ`ib qilish va ulardan foydalanish

Davlat dasturi”ning 10-bandi ijrosini ta’minlash maqsadida O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot institutida “O’zbek xalq ijodi yodgorliklari” 100 jildligini nashrga tayyorlash va uni tekstologik o’rganish muammolari” bo'yicha xayrli ishlar yo'lga qo'yilgan. Ana shu fundamental ilmiy loyiha asosida nashrga tayyorlangan “Yusuf bilan Ahmad” dostoni 100 jildlikning 2-jildini tashkil etadi.

“Insoniyat yaratgan bebahoh madaniyat durdonalari eng avvalo har qaysi millatning folklor san’atida mujassam topgani hammamizga yaxshi ma'lum.... Folklor san’ati, ta’bir joiz bo’lsa, bu – **insoniyatning bolalik qo’shig‘idir**¹. Ushbu magistrlik dissertatsiya ishi orqali mana shu yo‘nalishdagi tadqiqotlarni davom ettirish hamda yangi ilmiy xulosalar bilan boyitish ko‘zda tutilgan.

Mavzuning o’rganilish darajasi.

XIX asrning oxiriga kelib dostonning turkiy tillardagi bosma nashrlari ommalasha boshlagan. Bu jangnoma dostonning qo’lyozma nusxalari yuzasidan maxsus tadqiqot olib borgan R.Jumaniyozovning qayd etishicha, “Yusufbek va Ahmadbek” dostoni 1880-yili qozoq tiliga tarjima qilingan. Bu ishni qozoq ma’rifatparvari Eshboy Qozoq Qo’zbergan o’g’li amalga oshirgan. O’sha nusxa 1880, 1890 va 1904 yillarda Qozonda ketma-ket nashr etilgan. 1904 -yilda esa Samarqanddagagi G.I.Demurov matbaasida, 1910- yilda Kogon shahrida, Toshkentdagi G`ulom Hasan Orifjonov bosmaxonasida 1913-1917- yillarda nashr etilgan”. Ayniqsa, 1904 yilda Qozonda E.Kozbergenuli tarafidan bosilgan “Bo’zo’g’lon, Ahmadbek ham Yusufbek” dostoni ko’p o’qilgan.

Dostonning ana shunday bosma nusxalari va qo’lyozmalari xalq orasida sevib o’qilgan. Atoqli olim Hodi Zarifov o’zining 1939 yilda nashr etilgan “O’zbek folklori” majmuasiga “Yusuf bilan Ahmad” dostonining o’zbek tilidagi qo’lyozma nusxasidan bir parchani kiritgan.

¹ 1 Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг халқаро бахшичиллик санъати фестивали очилишига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи // Халқ сўзи. – Тошкент, 2019. 7 апрель. – № 68.

1880-,1890- yillar	Qozon
1904-yil	Samarqandda G.I. Demurov matbaasi
1910-yil	Kogonda
1913-1917-yillar	Toshkent ,G'ulom Hasan Orifjonov bosmaxonasi

“O’zbek folklori” majmuasiga “Yusuf bilan Ahmad” dostonining o’zbek tilidagi qo’lyozma nusxasidan bir parchani kiritgan.

Dostonning og’zaki variantlari o’zbek xalq baxshilari orasida ham g’oyat keng tarqalgan bo’lib, uning eng mukammal namunasi 1927-yilda yirik xalq shoirlari Muhammadqul Jonmurod o’g’li Po’lkan hamda Fozil Yo’ldosh o’g’li ijrosida H.Zarifov tomonidan yozib olingan.

“Yusuf bilan Ahmad” dostoni og’zaki versiyasining nashri **birinchi marta 1987-** yilda taniqli olim **Bahodir Sarimsoqov** tomonidan amalga oshirilgan. O’sha davr mafkurasi tazyiqi ostida yo’l qo’yilgan ba’zi qisqartirishlardan qat’i nazar, mazkur nashr dostonni xalqimiz orasida keng ommalashtirish borasida amalga oshirilgan muhim qadamlardan biri bo’lgan edi. **2008-yilda “Yusuf va Ahmad” dostonining shovotlik Niyozjon xalfa Musayeva** qo’lida saqlanayotgan qo’lyozma nusxasi asosida tayyorlangan matn “Oshiqnoma” rukni ostidagi dostonlar sirasida nashr etilgan.

“Alpomish” va “Yusuf bilan Ahmad” dostonlari sujetidagi ayrim an’anaviy motivlar talqinidagi mushtaraklik, xususan, “qahramonning zindonga tushishi”, “g’anim yurt qizining zindonband qahramon holidan xabar olishi”, “musiqa asbobi yasab qo’shiq aytish”, “tutqun qahramonning qushlar orqali o’z yurtiga xabar yuborishi”, “uzoq muddatlik ayriliq ta’sirida qahramonning ota-onasi ko’r bo’lib qolishi”, “qahramonning o’z xotini to’yi ustiga kelishi” singari motivlarning o’xhashligi, har ikkala eposda ham qahramonning singlisining ismi

Qaldirg`och tarzida berilishi kabi epik parallelliklar tahlili asosida “Yusuf bilan Ahmad” dostoni sujetining shakllanishida o’zbek xalq qahramonlik eposi jiddiy ta’sir ko’rsatganligi dalillangan.

Hozirga qadar turkiy xalqlar, shu jumladan, o’zbek folklorshunosligida “Yusuf bilan Ahmad” dostoni xususida u yoki bu darajada fikr bildirilgan manbalar ko’p. Xususan, o’zbek xalq kitoblarining tasnifi, janr xususiyatlari, variantlari, tarixiy asoslari va poetikasi masalalari bilan shug`ullangan R.M.Jumaniyozov “Yusufbek va Ahmadbek” dostoni va uning tarixiy asoslari mavzusida nomzodlik dissertasiyasini himoya qilgan. U O’zR FA Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan “Yusufbek va Ahmadbek” dostonining qo’lyozma va bosma na’munalarini qiyosiy o’rganish asosida yozgan maqolalari va kitoblarida bu doston nusxalarini tavsiflab, mazkur epik sujetning kelib chiqish tarixi, dostonning asosiy motivlari va obrazlar silsilasini tadqiq qilgan.

Magistrlik dissertatsiyamizning maqsadi: “Yusuf va Ahmad” dostonining badiiy til xususiyatlarni o’rganishdan iborat.

Magistrlik dissertatsiya ishimizning vazifalari:

- «Yusuf va Ahmad» – jangnomma doston ekanligini asoslash;
- “Yusuf bilan Ahmad” dostonining yaratilishi tarixini o’rganish;
- dostonning sujet qurilishi va g`oyaviy mazmunini bayon etish;
- «Yusuf va Ahmad» dostonining til xususiyatlari;
- dostonda qo’llangan arxaik va shevaga xos so’zlarni aniqlash;
- dostonda uchraydigan xalq iboralarini izohlash;
- dostondagi lafziy va ma’noviy san’atlarning badiiy-estetik vazifalarini yoritib berish va hokazolar.

Magistrlik dissertatsiya ishining predmetini “Yusuf va Ahmad” dostonining badiiy til xususiyatlari tashkil qiladi.

Magisrtlik dissertatsiya ishining manbasi. Magisrtlik dissertatsiyasini yozishda o’zbek baxshilari Muhammadqul Jonmurod o’g’li Po’lkan va Fozil Yo’ldosh o’g’lidan taniqli folklorshunos Hodi Zarif yozib olgan va ilk bor

filologiya fanlari doktori, professor Bahodir Sarimsoqov chop ettirgan variant asosiy manba qilib belgilandi.

Magisrtlik dissertatsiya ishining metodologik asoslari va metodi. “Yusuf va Ahmad” dostonining badiiy til xususiyatlarini o’rganishda T.Mirzayev, K.Imomov, M.Murodov, O.Safarov, R.Jumanazarov, M.Jo’rayev, Sh.Turdimov, S.Mirzayeva, D.O’rayeva, J.Eshonqulov va boshqa folklorshunoslarning ilmiy asarlarida bayon qilingan nazariy xulosalarga asoslanildi.

Magisrtlik dissertatsiya ishining maqsad va vazifasi taqozosiga ko’ra tadqiqotda qiyosiy-tipologik va tarixiy-qiyosiy metodlardan foydalanildi.

Magistrlik dissertatsiya ishi natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Ushbu magisrtlik dissertatsiya ishining nazariy umumlashmalari boshqa xalq dostonlarining badiiy til xususiyatlarini ham keng ko’lamda umumlashtirib o’rganish sari undaydi.

Dissertatsyaning xulosalari va natijalaridan o’zbek folklori asarlarining izohli lug`atini tuzishda foydalanish mumkin. Bu esa magisrtlik ishimizning o’ziga xos amaliy ahamiyatini belgilaydi.

Natijalarining joriy qilinishi va sinovdan o’tishi. Magisrtlik ishi Andijon davlat universiteti Filologiya fakulteti adabiyotshunoslik kafedrasining yig`ilishida muhokama qilinib, himoyaga tavsiya etildi.

Magistrlik dissertatsiyasining tuzilishi va hajmi. Ish kirish, uch asosiy bob, 7 ta jadval, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatidan iborat.

I BOB. «YUSUF VA AHMAD» – JANGNOMA (romanik)DOSTON.

I.1. DOSTONNING YARATILISH TARIXI VA ILK MANBALAR

Jang-u jadallar, tarixiy yoki afsonaviy janglar ,urushlarda qo'shin va yakka shaxslarning jasoratlarini tasvirlovchi dostonlarga jangnoma (romanik) dostonlar deyiladi. Bunday dostonlar qahramonlik dostonlari ta'sirida shakllangan. Qahramonlik dostonlarida bosh qahramonning faoliyati yakkama-yakka olishuvlarda namoyon bo'lsa, jangnomalarda turli xil urush epizodlarida ko'rsatiladi.

O'sha paytlarda hukmron tabaqa islom dinini harbiy kuch bilan yoygan insonlarni xalq orasida tanitish va shunday ishlarni targ'ib qilish maqsadida jangnoma ko'rinishidan foydalanilgan. Shunday harakatlar natijasida "Jangnomayi Sayid Battol G'oziy", "Jangnomayi Abo Muslim" , "Jangnomayi Amir Hamza" kabi islom dinini zo'rlik bilan targ'ib qilgan shaxslarning nomi bilan bog'liq jangnomalar yuzaga kelgan. "Rustami doston", "Qahramon qotil" , "Hushrang" , "Jangnomayi Jamshid" kabilarni ko'rsatish mumkin.

O'zbek baxshilarining repertuarida bunday dostonlar juda ham ozchilikni tashkil etadi. Urug', qabila yoki xalqning mustaqilligi uchun olib borilgan janglarni tasvirlovchi qadimiy jangnomalar ("Shiroq ", "To'maris" kabi) zamonlar o'tishi bilan turli xil sabablarga ko'ra baxshilar repertuaridan tushib qolgan bo'lishi mumkin. Buning o'rniga janglar biror xalqning diniy e'tiqodlarini g'ayri dinlardan himoya qilish yoki o'z dinini o'tkazish tarzida talqin etila boshlangan. Dushmanga qarshi kurashda mardlik, jasorat ko'rsatish, ona vatan daxlsizligi kurashish, vatanparvarlik, do'stlik kabi g'oyalar kuylangan. "Yusuf va Ahmad" dostoni buning yorqin dalilidir.

"Yusuf bilan Ahmad" dostonida epik qahramonlarning Go'zalshohga qarshi kurashi keng ko'lamda bayon etiladi. Asarda tasvirlangan voqelik talqinining asosiy mantiqiy o'zagini ona yurtning daxlsizligini qahramonona himoya qilish, uni har qanday tashqi kuchlar xurujidan saqlash, vatanni ko'z qorachig'iday asrab-avaylash, janglarda mislsiz jasorat ko'rsatish, ona yurtni jon-dildan sevish, vafodor yorni ardoqlash, oila qo'rg'onini muqaddas deb bilish, xalqlar o'rtasidagi

o'zaro do'stlikni qadrlash, boshqaruvdaadolat mezoniga amal qilish, hamjihatlik va birodarlikni ulug`lash g`oyalari ustuvorlik qiladi. Shuning uchun ham har bir baxshi bu dostonni qunt bilan o'rganib, uni turli davra-yig`inlarda jo'shib kuylashga harakat qilgan. Binobarin, "o'zini yetuk dostonchi deb hisoblagan xalq shoiri, baxshisi repertuarida "Yusuf bilan Ahmad" dostonini uchratish mumkin" ligining o'zi ham bu jangnoma dostonlar xalq orasida nechog'lik keng shuhrat qozonganligidan dalolat beradi.

Markaziy Osiyo turkiy xalqlari, shu jumladan, o'zbek folklorida "Yusuf bilan Ahmad" dostonining o'ziga xos og'zaki versiyasi mavjud bo'lgan. Bu asar xalq orasida "Yusuf-Ahmad", "Yusuf bilan Ahmad", "Yusufbek va Ahmadbek", "Bo'zo'g'lon" kabi nomlar bilan yuritilgan. Faqat xalqimiz orasida bu nomdag'i dostonlar ikki yo'l bilan, ya'ni baxshilar epik repertuaridan o'rinn olgan xalq dostoni sifatida bevosita og'zaki ijiro orqali hamda qo'lyozmalar va keyinchalik matbaachilik yuzaga kelgach esa toshbosma kitoblar tarzida ommalashib kelgan.

Venger sharqshunosi Herman Vamberi 1867- yilda bosilgan "Chig'atoy tili" darsligi" kitobida "Yusuf va Ahmad" , "Tohir va Zuhra", dostonlaridan parchalar beradi. "Yusuf va Ahmad" dostonining o'zi amalgalashib oshirgan to'la nemischa tarjimasini e'lon qiladi. Bu Yevropada birinchi marta o'zbek eposidan qilingan tarjima edi.

Ma'lumki, xalqimiz hayotida bo'lib o'tgan real tarixiy voqealar, turli davrlardagi ijtimoiy munosabatlar va etnik jarayonlar o'zbek jangnoma dostonlarining yaratilishida muhim rol o'ynagan. Xususan, "Yusuf bilan Ahmad" dostonida tasvirlangan epik voqealar – Isfahon hukmdori Bo'zo'g'lonxonning o'z jiyanlari Yusuf va Ahmad bilan arazlashib, yurtidan quvg'in qilishi va ularning Xorazm xoni Eralixon huzuriga kelishlari, Misr podshosi Go'zalshohning Xorazmga o'z xufyasini yubortirib, Yusuf bilan Ahmadni zindonband etishi, Ashurbek boshchiligidagi qirq yigitning o'z do'stlarini qutqarish maqsadida "yazid"lar bilan jang qilishi, va nihoyat, zindondan xalos bo'lib, o'z yurtiga qaytgan qahramonlarning katta qo'shin to'plab, Go'zalshoh ustiga yurish qilishi voqealari tasvirida XVI asrning boshlarida Xorazm vohasida ro'y bergan tarixiy

hodisalar – shoh Ismoil boshchiligidagi safaviylarning bu hududga bostirib kelishi va xorazmliklarning yurt ozodligi uchun olib borgan mardonavor kurashining aks sadosi yangrayotganday bo’ladi.

“Yusuf bilan Ahmad” dostonida Go’zalshoh lashkariga nisbatan “qizilboshlar” atamasi qo’llanilganligini hisobga olgan holda bu asardagi jang lavhalarining talqiniga xorazmliklarning o’z yurtini tashqi bosqinchilar xurujidan himoya qilish maqsadida olib borgan jang-u jadallari bilan aloqador tarixiy faktlar asos bo’lgan, deyish mumkin. Ushbu dostonning qo’lyozma va toshbosma nusxalarini qiyosiy o’rgangan folklorshunos R.Jumaniyozov ham “dostonda XVI asr Xorazm ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy munosabatlariga doir ko’pgina ma’lumotlar mavjud. Unda o’sha davr ijtimoiy turmushiga xos jihatlar u yoki bu darajada o’z ifodasini topgan”ligini qayd etadi.

Demak, Xorazm vohasi aholisining shoh Ismoil qo’shinlariga qarshi olib borgan kurashi, aka-uka Elbarsxon va Belbarsxon boshchiligidagi o’zbek qavmlarining bu jangda xorazmliklarga yordam berishi, shuningdek, XI asrning oxirida g’aznaviylar mag’lubiyatga uchragach, Isfahon va Kirmonga ko’chib ketgan xorazmlik emrelilarning safaviylar davridagi suronli voqealar sababli o’z ona diyori – Xorazmga ko’chib kelishi bilan bog’liq voqealar ta’sirida XVI asrning o’rtalarida “Yusuf bilan Ahmad” dostoni sujetining ilk namunasi yuzaga kelgan. Yusuf bilan Ahmadning jang-u jadallari va qahramonona sarguzashtlariga bag`ishlangan o’zbek jangnomalarining og`zaki variantlari orasida Muhammadqul Jonmurod o’g’li Po’lkan hamda Fozil Yo’ldosh o’g’lidan yozib olingan namunaning matni hajman nihoyatda kattaligi, an’anaviy epik sujet qurilishining mukammalligi, turkiy xalqlar jangnomalarining eposiga xos barcha asosiy belgilarni o’zida mujassamlashtirganligi, tasvirlangan voqealar talqinining ko’lamdorligi, baxshilar badiiy mahorati va badihago’ylik iqtidorining o’ziga xosligi bilan alohida ajralib turadi.

“Yusuf bilan Ahmad” dostonining o’ziga xos xususiyatlari va kelib chiqishi tarixi xususida qiziqarli mulohazalarni bildirgan Herman Vamberi o’zining 1911 yildagi nashriga yozgan so’zboshisida bu doston o’zbek xalqi epik tafakkurining

mahsuli o'laroq Xorazmda shakllangan, degan muhim qarashni ilgari surgan. Oradan qariyib 20 yil o'tgach, mazkur doston sujetining yaratilish tarixi va tarqalishi masalasi A.N.Samoylovichning 1929-yilda chop ettirilgan turkman adabiyoti tarixi ocherklarida ancha keng yoritilgan. Olim Yusuf bilan Ahmad sarguzashtlariga bag`ishlangan jangnoma doston sujeti Sharqiy Turkistondan Volga bo'ylarigacha bo'lган katta hududda tarqalgaligini qayd etar ekan, uning sujeti bilan "Kitobi Dadam Qo'rquq"ning "Bomsi Bayrak va Bonu chechak" bo'yи (qismi) orasida yaqinlik mavjudligiga e'tiborni qaratgan ediki, bu keyinchalik folklorshunoslikda "Yusuf bilan Ahmad" dostoni sujetining genezisini qiyosiy-tarixiy jihatdan o'rganishda muhim ahamiyat kasb etdi.

O'zbek xalq qahramonlik eposiga doir monumental tadqiqot mualliflari V.M.Jirmunskiy va H.T.Zarifovlar tomonidan ushbu dostonning janriy mansubiyati belgilangan va "jangnoma doston" sifatida tasniflangan mazkur epik asarning shakllanishiga qahramonlik eposi an'analarining ta'siri atroficha yoritilgan.

Jadval-2

German Vamberi	1911-yil	So'zboshiga doston haqidagi fikrlarini kiritgan ,Xorazmda shakllangan degan fikrni ilgari surgan
A.N.Samaylovich	1229-yil	Turkman adabiyoti ocherklarida "Kitobi Dadam Qo'rquq"ning "Bomsi Bayrak va Bonu chechak" " qismi orasida yaqinlik bor deb aytgan

Dostonning boshqa tillarda chop ettirilgan	Turkman	Doston
--------------------------------------------	---------	--------

versiyalari		
	Uyg'ur	Doston
	Qozoq	Doston
	Qoraqalpoq	Doston
	Arab	I.N.Vinnikov G'ijduvon t,jo'gari qishlog`ida yashovchi arablardan shunday nomlangan ertak yozib olgan

Bundan tashqari, mazkur dostonning turkman, uyg`ur, qozoq va qoraqalpoq versiyalari ham chop ettirilgan. 1936, 1938 va 1943 yillarda Buxoro arablari tili va folkloriga doir materiallar to`plagan sharqshunos I.N.Vinnikov esa G`ijduvon tumanidagi Jo'gari qishlog`ida yashovchi arablardan “Ahmad-Yusuf” ertagini yozib olgan.

I.2 “YUSUF VA AHMAD” NING JANGNOMA DOSTON SIFATIDAGI O’ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Bizning buyuk ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan milliy, ma’naviy va madaniy boyliklarimiz necha asrlardan buyon o’zining mazmun-mohiyati bilan xalqimiz tomonidan qadrlanib kelinmoqda. Ma’naviy va milliy merosimizni asrab -avaylash ,qadrlash,sevib o’rganish davrimizning dolzarb masalalaridan biri bo’lib qoldi. Xalq dostonlari ham ma’naviy merosimizning ajralmas bir qismi hisoblanadi. Dostonlar o’ziga xos xususiyatlarga ega. Quyida jangnoma dostonlarning go’zal na’munasi bo’lgan “Yusuf va Ahmad “dostonining o’ziga xos xususiyatlari tahliliga kirishamiz

Jangnoma dostonlarning ham o’ziga xos xususiyatlari mavjud . Bunday dostonlarda ko’pincha qilich, g’oziy, shahid, urush, jang,sovut, tug’, g’azo, navkar, askar, savash singari jangavor so’zlar uchraydi. Agar shu jihatlariga

e'tibor qaratilsa, "Yusuf bilan Ahmad" dostonida ham shunday so'zlarni ko'p uchratish mumkin. Masalan:

Urganch elda o'zini biz deganlar,
Qirovka **sovutni** saylab kiyganlar,
Beklar ,kelding yasovli **yov** ustiga ,m
Xangamada **g'azo** deyishib aytganlar,
Aytib turib so'zlarida qaytganlar

Ushbu parchada qo'llanilgan Sovut, yasovli, yov, g'azo kabi so'zlarga duch kelamiz va bu parchadan jangga otlangan askarlarni tasavvur qilamiz .G'azo deganda bosqinchilik kurashi tushuniladi.

Taraf bilan **urishdi**.

Beklar jonini sotdi,
Kecha-kunduz urush qiling,
Choq bo'ling endi, **navkarlar**.
Do'st-u dushman xasis ekan demaymi?
Urush kuni dushman bilan savashgin,
Urishdi, urush qiling, navkarlar, urush kuni, savashgin, talato'p jumlalari bevosita jangnoma doston xususida so'z borayotganini ilg'ashga yordam beradi.
Cho'lni **lashkar** bosib ketdi.
Tag'i beparvo bo'lmasin,
Hamma erni odam tutdi.
Ajalli urushda o'lar,
Bu misralarda ham jang manzarasi, son-sanoqsiz lashkarlarning jangi tasvirlanmoqda.

Jangnoma dostonlarning yana bir xususiyati shundaki, uning tilida jang qilayotgan tomonlarning ramzini ifodalovchi bayroq, jang qurollari, jangchi liboslari va predmetlari nomlari ko'p tilga olinadi. Masalan, bu jihatdan "Yusuf va Ahmad" dostonida "**alam**" – bayroq, tug'; "**baydoq**" – bir bayroq ostida xizmat qiluvchi askarlar guruhi, ya'ni harbiy bo'linma; "**birich//birinch**" – mis,

qo'rg'oshin, qalay, allyuminiy kabi ma'danlar eritmasidan hosil bo'lgan metall qotishma; “**dobil**” – ot egarining qoshiga mahkamlab qo'yib jang yoki to'y-hashamlarda chalinadigan doirasimon nog'oraga o'xshash musiqa asbobi; “**jazoyil**” – miltiqning bir turi, kichik to'p; “**kark teri qalqon**” – jangda qilich yoki kamon o'qidan saqlanish maqsadida karkidon terisidan tayyorlangan qalqon; “**kirovka**” – Sovut ostidan kiyiladigan, metalldan yoki boshqa qattiq narsadan tayyorlangan nimchaga o'xshash kiyim turi, **dubulg`a** – jang paytida boshni tig` yoki kamon o'qidan himoya qilish, shuningdek, boshqa xil harb zarbalaridan saqlash maqsadida kiyiladigan metall bosh kiyim, **choroyna** – to'rt parcha temirni biriktirib yasaladigan harbiy libos (u zirhli kiyim ustidan ko'krak va elkaga taqiladigan bu himoya moslamasi bo'lib, o'q va tig` zarbidan saqlanish uchun badanga o'rav bog'langan), **shopcha** – kichik qilich, **chindovul** – bir tomoniga teri qoplab tayyorlangan dubulg`a shaklidagi urma cholg`u asbobi (jangu jadallar va turli marosimlarda ishlataligani) kabilarning nomlari shular jumlasidandir.

Jadval-3

1	“alam”	– bayroq, tug`
2.	baydoq” –	bir bayroq ostida xizmat qiluvchi askarlar guruhi, ya'ni harbiy bo'linma;
3.	“birich//birinch –	mis, qo'rg'oshin, qalay, allyuminiy kabi ma'danlar eritmasidan hosil bo'lgan metall qotishma;
4.	“dobil” –	ot egarining qoshiga mahkamlab qo'yib jang yoki to'y-hashamlarda chalinadigan doirasimon nog'oraga o'xshash musiqa asbobi;
5.	“jazoyil” –	– miltiqning bir turi, kichik to'p
6.	kark teri qalqon” –	– jangda qilich yoki kamon o'qidan saqlanish maqsadida karkidon terisidan tayyorlangan qalqon
7.	“kirovka” –	sovut ostidan kiyiladigan, metalldan yoki boshqa qattiq narsadan tayyorlangan nimchaga o'xshash kiyim turi

8.	dubulg`a -	– jang paytida boshni tig` yoki kamon o'qidan himoya qilish, shuningdek, boshqa xil harb zarbalaridan saqlash maqsadida kiyiladigan metall bosh kiyim
9.	choroyna –	– to'rt parcha temirni biriktirib yasaladigan harbiy libos (u zirhli kiyim ustidan ko'krak va elkaga taqiladigan bu himoya moslamasi bo'lib, o'q va tig` zarbidan saqlanish uchun badanga o'rab bog`langan),
10.	shopcha –	kichik qilich
11.	Chindovul	bir tomoniga teri qoplab tayyorlangan dubulg`a shaklidagi urma cholg`u asbobi (jangu jadallar va turli marosimlarda ishlatilgan)

Yuragiga dog' tegdi.

Egarining qoshidan ,

Sovutining boshidan,

Ashirbekka **o'q** tegdi.

Yara yuziga qon qotdi.

Ari zambirday bo'lib,

O'q nobop teshib o'tdi.

Yo'rmali cholvoridan,

Taram-taram qon ketdi.

Jang-u jadallar qurbonsiz, yaradorsiz bo'lmaydi. Yuqorida berilgan parchada asar qahramoniga o'q tekkanligi badiiy tarzda ifodalab berilgan. Tasvir yaqqol ko'z oldimizda gavdalanadi. O'q qahramonni shunday yaraladiki, natijada o'q tanasining narigi tomonidan teshib chiqdi.

Dostondan olingan quyidagi parchada sallotboshi, sarbozboshi so'zlari tilga olinadi. “**Sallotboshi, sarbozboshi** aytdi: – Dushmaning xas bo'lsayam, qo'rqqin, degan gap bor. Miltiqning shoxini erga tirab, qayishini besh-olti bilakka o'rab,

ko'zini qisib qorovulga qarab, miltiqning qo'ndog'ini qo'lтиqqa tirab, juda tiqib miltiqni o'qlab, piltaginasini cho'qlab, haligi tepkisiga qistirib, choppa-choq bo'lib, yotaberdi tog`ning boshiga qarab”.

Ushbu parchada jang maydonidagi askarlarning harakatlarini kuzatib turish mumkin. Buni qarangki , jangda merganlar yashirinib olar ekan. Xalq orasida jang maydonida, el-u yurti sha'nini, ozodligini deb jon taslim qilgan jangchilar “shahid” hisoblanishi aytildi. Shunga ishora dostondan olingan quyidagi parchada kuzatiladi: “Ot-otiga minib, **sovut**, **choroyna**, **qalqonni** eyniga olib, otlarni shaylab, qirq ikki **nayzaga** har rang salladan tug` qilib boyлади. G`animning salloboshilari: “Qirq ikki tug` keb tikildi, Urganchdan, Xorazmdan, o'zbaklardan yomon og'ir lashkar etdi”, – dedi. Joni hurkib ketdi. “Hamma erni tug` bosib ketdi”, – degan ko'p bo'ldi. Ana, endi Ashirbek sardor yigitlariga qarab, falakdan shikoyat qilib, bir so'z ayta berdi:

Chopsang – **g`oziy**, o'lsang – **shahid**,

Qiring har yona-har yona.

Misol olingan parchadagi Sovut, choroyna, qalqon, qirq ikki nayza, har rang salladan tug`, g`anim, salloboshi, lashka, g`oziy, shahid, qirmoq kabi so'zlar jangnoma doston tabiatiga mosligi bilan e'tiborni tortadi.

Jangnoma dostonlarda eng ko'p jang tasvirlariga e'tibor qaratiladi:

Ko'p odamlar qirildi.

Otlarni el-ho, deyishib,

Xanjarni sol-ho deyishib,

Talabing kel-ho, deyishib,

Kel-ho, deb maydon ichida.

Merganlari pisib yotir,

Papalashib satta botir,

Shoxli **miltiq** patir-putur,

Otildi maydon ichida.

Lashkar keldi dasta-dasta,

Urush bo'ldi chaparasta.

Bu misralar orqali beixtiyor tinglovchi ko’z o’ngida otlarning dupur-dupuri, chang-to’zon ichida olishayotgan lashkarlar, o’q ovozlari, qirg`in-barot urush, dahshatli olishuv manzarasi namoyon bo’ladi. Ushbu parchada jang maydonidagi askarlarning harakatlarini kuzatib turish mumkin. Buni qarangki , jangda meraganlar yashirinib olar ekan. Uzangilarning shaqillashi va otlarning pishillashi hamohang, yonmayon tarzda tasvir obyektiga yaqinlashtirilmoqda. Odamlarning boshlari huddi sholg’omday uyoqdan buyoqqa uchib ketmoqda. Urush dahshatlarining she’riy tasviri edi bu. Albatta, jang qurbonsiz va yaradorlarsiz bo’lmaydi. Shuni inobatga olib, jangnomma dostonlarda, yaradorlar tasviriga ham alohida e’tibor qaratiladi:

Ashirbekka o’q tegdi,
Yara yuziga qon qotdi.
Ari zambirday bo’lib,
O’q nobop teshib o’tdi,
Yo’rmali cholvoridan,
Taram-taram qon ketdi,
Bo’z otining yolin olib,
Shunday qiyshayib yotdi.

Vatan va yurt uchun jangda orttirilgan yara askarlar orasida “Davlat yara” deb nomlangan va o’zaro qutlangan. Bunga ishora dostondagi ushbu parchadan sezilib turadi: “Davlat yara qulluq bo’lsin, tog`ajon. Yaraning og`ziga lattani tiqib, Belbog`iman chingillatib boyladı”.

Jangda jangovar usullar, harbiy hiylalar ishlatib, dushmanni engshishga katta e’tibor qaratilgan. Jang usullarining o’ziga xos nomlari bo’lib, ular raqib tomondan sir tutilgan. O’tmishda mana shunday jang usullaridan biri “**biqtirma tashlab keluv**” hisoblangan. Uning mohiyati “Yusuf va Ahmad” dostonida quyidagi izohlab berilgan: “Ana, endi jazosini bermak, taraflarni qirmoq, ot chopilmoq, kirovka so’kilmoq, o’q badanga tigib to’kilmoq, osmonda farishtalar, tog`ning boshida Yusuf bilan Ahmadbek tomoshani ko’rmoq, shu beklar oralab, och bo’riday urishib yuribdi, qilich-yaroq yarq-yarq etib, yashin oqqanday bo’lib,

yaxshi-yomonligi bilinmay, otlar qip-qizil qonga bo'yalib ketdi. Ana boyani Asqar tovning oyog'iga o'ttiz ming qo'shinni biqtirma tashlab keluvdi Mirza Mahmud".

Birinchi bob yuzasidan chiqarilgan xulosa.

1. Doston syujetining shakllanishi Xorazmda kechgan voqealar ta'siri bilan bog'liq hisoblanib, qahramonlik dostonlariga xos an'analarga tayanilgan. Ushbu syujet keng hududlarga tarqalgan bo'lib, uning og'zaki, qo'lyozma va toshbosma variantlari mavjud hisoblanadi. Uni Herman Vamberi nemis tiliga birinchi marotaba tarjima qilgan va bu tarjima yevro'pada o'zbek adabiyotidan amalga oshirilgan ilk tarjima edi.

2. "Yusuf va Ahmad" jangnomasi doston bo'lib, unda qadimiy jang qurorollari, jango var kiyim-kechaklar, jang usullari, harbiylarning unvon-martabalari nomi, jang tasviri manzaralari, vatanparvarlik g`oyasi bilan kurashmoq mohiyati xususidagi ma'lumotlar badiiy talqin etilgani kuzatiladi.

Qahramonlarning ruhiy holati va xatti-harkatlari jangnomasi dostoni qahramoniga xos va mos holda tasvirlangan. Jingga otlanish, jang maydoni va shu kabi manzaralarda ularning jasorati, qurola ishlatishdagi mahorati yaqqol ko'zga tashlanadi. Xatto yarador holida ham bu yarani "davlat yara"deb ataganligi tahsinlarga loyiq .

II-BOB. “YUSUF VA AHMAD “ DOSTONINING SYUJETI VA MOTIVLARI

II.1 DOSTON SYUJETINING O’ZIGA XOS QURILISHI

Syujet badiiy shaklning eng muhim elementlaridan biri hisoblanadi. U asardagi bir-biriga uzviy bog’liq holda kechadigan va qahramonlarning xattiharakatlaridan tarkib topuvchi voqealar tizimidir. Ushbu dostonda voqealar tizimi quyidagicha joylashgan:

Isfihon hukmdori Bo’zo’g’lonning Yusuf va Ahmad degan ikkita jiyani bor bo’lib, podsho ularni xuddi o’z farzandiday parvarishlab o’stiradi. “Yusuf va Ahmad” dostonining xalq kitobi variantlarida qahramonlarning tug’ilishi turlicha tavsiflanadi. Ayrim qo’lyozmalarda Yusuf va Ahmad bir ota-onaning egizak bolalari sifatida e’tirof etiladi. Bunda ham ko’pincha muyyan izchillik, aniqlikka rioya qilinavermaydi. Asarning dastlabki qismlarida ularning bior vaqtning o’zida tug’ilishi, va nom qo’yilishi haqida gap ketsa, boshqa bir o’rinlarda esa ularda yosh jihatdan tafovut ko’zga tashlanadi. Masalan, “Yusufbek o’n sakkiz yoshga kirdi, Ahmadbek o’n to’rtga to’ldi”.

Ma’lumki, folklor asarlari uchun tarixan konkretlik, aniqlik ko’pincha ikkinchi darajali hodisadir. Yusuf va Ahmadning yosh jihatdan farqli qilib tasvirlanishini ham ana shu hodisa talabi deyish mumkin. Ayrim qo’lyozma manbalarda qahramonlarning dunyoga kelishi shunday ta’riflanadi. “Bo’zo’g’lonxonning bir vaziri bor erdi. Otini oqilxon der erdilar. Bo’zo’g’lon singlisin berib o’ziga kuyov qildi. Oqilxon xotinidan ikki farzand ko’rdi. Birina Yusufbek, ikkinchisina Ahmadbek deb nom qo’ydi”. Boshqa bir qo’lyozmada esa o’zgacharoq shaklda uchraydi. “Bo’zo’g’lonxonning ikki sarkarsi bor erdi. Olarga ikki singlisini berib o’ziga domod qildi. Og’abekdan Yusubek bo’ldi, Bobobekdan Ahmadbek bo’ldi”.

Ko’ryapmizki, qahramonlarning tug’ilshi doston variantlari o’rtasida ham turlicha farqlanishlarga ega. Xo’sh, dualistik elementlar xalqlar dunyoqarashi tarixinining o’zaro mushtarakligini e’tiborga olgan holda g’arb xalqlari orasida tarqalgan egizaklar haqidagi miflar bilan o’zaro muqoyasa qilishni lozim topdik.

Zolotaryov Janubiy Amerika xalqlari orasiga yoyilgan egizaklar to'g'risidagi miflarni o'rgana turib shunday yozadi: "Janubiy Amerika miflarida egizaklarning tug'ilishi onaning o'limi bilan bog'liq". Bu aqida "Yusuf va Ahmad" dostonida ham o'z tasdiqini topadi. Dostonda Yusufning onasi La'lixon oyim Ahmadni (onasi o'lgani sababli) emizadi, natijada ular ko'kaldosh bo'lishadi. Bu hol dostonning deyarli hamma nuxxalarida ana shunday beriladi. Onaning o'limi motivi boshqa dostonlarda ham mavjudligini ta'kidlash kerak. "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonini olaylik. Lekin unda qahramonning dunyoga kelishi sal boshqacharoq xarakterga ega. Unda tasvirlanishicha, Go'ro'g'lining onasi Bibihilol vafot etadi. Qahramonning voyaga yetishi esa ot bilan bog'liq. Ya'ni go'ro'g'li yoshligidan biya sutini emib katta bo'ladi. "Yusuf va Ahmad"da esa qahramonlarning ulg'ayishida hayvon kultining ishtiroki yo'q. Bu motiv aslida totemizm bilan bog'liq. Qadim zamonlarda turli hududlarda istiqomat qilgan qabila va elatlar har xil hayvonlarni o'zlariga muqaddas hisoblashgan. Ularga topinganlar. Go'yoki, o'sha hayvon ular urug'inining asoschisi, urug'boshi sifatida tushunilgan.

"Yusuf va Ahmad" dostonida bunday tipdagi hayvon kulti alohida o'rinn tutmaydi. Bu albatta, eposining tarixiy taraqqiyoti davomida turli xil transformatsion holarlarni boshdan kechirishi natijasidir. Qolaversa, totemistik motiv asar mazmunini ochishda ma'lum funksiya o'tay olmaganligi sababli dostondan o'rinn olmagan.

Egizaklar haqidagi miflar bilan dostonning farq qiluvchi yana bir xususiyati ular o'rtasida konflikt yo'qligidir. Ma'lumki, yuqorida ko'rganimizdek, g'arb xalqlari miflarida egizaklar ma'lum yoshga yetganlaridan keyin ular o'rtasida ziddiyatlar kelib chiqadi va oqibatda urug' ikkiga bo'linib ketadi. Ular o'rtasidagi ziddiyatlar umrbod davom etadi. Biz so'z yuritayotgan eposda esa bu hol sezilmaydi. To'g'ri, dostonning og'zaki variantida aka-uka o'rtasida nisbatan konflikt ko'zga tashlanganday bo'ladi (masalan, Ahmadning o'z akasini so'rab Gulusal chodiriga borishi tafsilotlari bilan bog'liq manzaralarni eslang). Dostonning yozma variantlarida esa aka-uka bir-biri bilan do'st, inoq, urushda

ham, kurashda ham bir-biriga kamarbasta sifatida gavdalanadilar. Egizaklar o’rtasida konflikt yasashning zarurati yo’qligi uchun xalq bu epizodni eposga kiritishni lozim ko’rmagan bo’lishi mumkin. Egizaklar o’rtasida konfliktning bo’lish- bo’lmasligining sababi jahon xalqlarida egizaklarga qarashning o’ziga xosligi bilan bog’liq.

Jahon xalqlarida egizaklarga qarash ikki xil tarzda bo’lgan. Bu munosabat Sharq xalqlarida ijobiy xarakterga ega bo’lgan bo’lsa, G’arb xalqlarida ko’proq salbiy xarakter kasb etgan.

Dotsent O. Mo’minovning xabar berishicha, sharq xalqlarida egizaklar tavalludini odatan quvonch bilan kutib olishgan. Egizaklarga, ularning onasiga katta hurmat izhor etilib, uni muqaddas hisoblashgan. Afrikaning Gyugo mamlakati hududida esa ilgarigi vaqtlardan egizaklarning tug’ilishi dahshatli voqeа sifatida izohlangan. Egizaklar tavallud topishi bilan darhol nobud etilgan. Chunki, ular egizaklarning vujudga kelishida ins-jinslar, yovuz kuchlar ishtirot etgan deb o’ylaganlar. Agar ona ikkinchi marotaba egizak tug’sa, egizaklar kir chumolilar yemishiga aylantirilgan. Mahalliy xalq e’tiqodiga ko’ra bunday tadbir uchinchi marotaba egizaklar tug’ilishining oldini olarmish. Senegalda yashovchi xalqlarning ba’zilarida ham egizaklarning birining hayoti saqlanib qolingan, ikkinchi-nimjonrog’i katta xum idishga solinib tiriklayin yerga ko’milgan. Ekvator atrofidagi Kongo xavzasida yashovchi xalqlarning ba’zilarida egizaklar tuqqan ayol chaqaloqlari bilan birga nobud qilingan.

Mana bulardan ko’rinyaptiki, sharq xalqlari egizaklarni muqaddas bilib ularni yaxshilik, ezgulik nishonasi sifatida e’zozlashgan. “Yusuf va Ahmad” dostonida sharq xalqlarining egizaklar haqidagi qarashlari o’z ifodasini topgan.

Dunyo xalqlari miflarida egizaklar ba’zan uchlik formasida uchrashi ham kuzatiladi. Atoqli etnograf L. Ya . Shtenberg uch egizak formalarini yunon miflarida ko’proq uchrashini aytib o’tgan edi. Bunda aka-uka yoki opa-singil shaklida emas, balki ikki qiz bir og’il, ikki o’g’il bir qiz tarzida bo’ladi. Egizaklarning uchlik xarakterga ega bo’lishini “Yusuf va Ahmad” dostonida ham mavjudligini ko’ramiz.

Dostonning ilk qismlarida faqat bosh qahramonlarning tug'ilishi tilga olinadi. Keying qismlarda esa ularning opasi-Qaldirg'och ham qayd qilina boshlaydi. Dostonda Qaldirg'och obrazining o'z o'rni, funksiyasi bor. Ular barcha yumushlarni bamaslahat hal etishadi. Yusuf, Ahmad va Qaldirg'och obrazlarini egizaklar sifatida e'tirof qilinishining ikki sababi bor. Birinchisi dostoniga "Alpomish" eposining bevosita ta'siri bilan izohlanadi. Chunki, dostondag'i qaldirg'och obrazining tasviri "Alpomish"dagi Qaldirg'och obraziga juda muvofiq keladi. Bevosita ta'sirni esa o'sha obrazlarning bir xil nomlanishidan ham sezsa bo'ladi. Ikkinchidan esa, egizaklarning bu uchlik formasi xalq dualizmining o'ziga xos taraqqiyotini, o'zgarish jarayonini ham ko'rsatadi.

"Yusuf va Ahmad" dostoni uzoq davrlik jonli ijodiy jarayonning mahsuli. U o'tmish avlodlarimizning e'tiqodi va dunyoqarashiga doir elementlarni o'ziga singdirgan holda bizgacha yetib kelgan. Bu tipdag'i elementlarning ayrimlari dostonga boshqa bir epik namunalarning ta'siri orqali kirib kelgan. Kunlardan bir kuni yonidagi vazirlari "Yusuf bilan Ahmad ulg'ayishsa, sizdan toj-taxtni tortib olishadi" deb ig'vo qiladilar va bu gapga ishongan Bo'zo'g'lon ularni Isfihondan badarg'a qiladi. Bo'zo'g'lonning ukasi va lashkarboshisi Ashirbek sardor ham jiyanlari bilan ketishga qaror qiladi va shundan keyin o'n bir ming uyli qavmi Yusuf bilan Ahmadga hamroh bo'lib yurtdan ko'chadilar. Ular Urganch shahri yaqiniga kelib to'xtaydilar. Urganch podshosi Eralixon Yusuf bilan Ahmadni yaxshi kutib oladi va qizi Gulasalni Yusufga berib, o'ziga kuyov qilib oladi. Ahmadbekka esa Nodirbekning qizi Gulxadichani fotiha qiladilar. Bu orada Misr podshosi Go'zalshoh bir tush ko'radi va Chin-Mochindan kelgan savdogar Bobo Qambar bu tushni ta'birlar ekan, Xorazmdan Yusuf bilan Ahmad degan ikki bahodir kelib Misr taxtini egallashini bashorat qiladi. Bundan g'azablangan Go'zalshoh Bobo Qambarni zindonga tashlattiradi va Yusuf bilan Ahmadni bandi qilib tutib kelish uchun Mirza Mahmud degan bir odamini Urganchga yuboradi. O'z xatosini anglagan Bo'zo'g'lon jiyanlari bilan qaytadan topishadi va Mirza Mahmudning niyati yomonligini payqab, Yusufni ogohlantiradi. Ammo Yusuf bilan Ahmad bu gapga e'tibor bermaydilar va Mirza Mahmudning ayyorligi

sababli dushman qo’liga tushib qoladilar. Ashirbek sardor boshchiligidagi qirq yigitning Yusuf va Ahmadni bandilikdan ajratib olishga bo’lgan harakatlari zoe ketadi. Mirza Mahmud va unga ko’makka kelgan Ko’kcha Yusuf bilan Ahmadni Misrga bandi qilib olib ketadilar. Go’zalshoh Yusuf bilan Ahmadni o’limga hukm qiladi, ammo pirlar madadi bilan ular omon qoladilar. Shundan keyin podsho ularni zindonga tashlattiradi.

Yusuf bilan Ahmad zindonda Bobo Qambar bilan birga etti yil yotadilar. Misrda yashaydigan xorazmlik Bibiniyozi, Hamza zindonbonning qizi Qorako’z oyim ularning holidan xabar olib turadilar. Xorazmliklar Misrdan kelgan savdogarlardan Yusuf bilan Ahmad halok bo’libdi degan xabarni eshitadilar. Gulasal sevgilisining daragini topish uchun turnalarning qanotiga xat yozib yuboradi. Yusuf Go’zalshohning shoiri Ko’kcha bilan soz chalib aytishuvda g’olib chiqadi va Ahmadni o’zi bilan birga olib, “otdan tushmay, qaytib kelib Misr shahrini olajagini” aytib, Xorazm tomon yo’l oladi. Urganchga kelgan Yusuf bilan Ahmad Nodirbekning qizi Gulxadichaning to’yi ustidan chiqib qolishadi va o’zlarini tanitmay baxshi-shoir qiyofasida to’yga keladilar. Yusuf onasi La’lixon, singlisi Qaldirg’och, sevligisi La’lixon, tarki dunyo qilgan qaynotasi Eralixon hamda tog`asi Ashurbek sardor bilan topishadi. Mo’jizakor tuproq yordamida onasi, sevgan yori va qaynotasining ko’r bo’lib qolgan ko’zlariga qayta nur bag`ishlaydi. Yusuf bilan Ahmad katta lashkar bilan Misrga qaytib borishadi. Ular uzoq muddatli jang-u jadallardan keyin Bobo Qambar va Qorako’z vositachiligidagi misrliklarga omonlik berib, insof vaadolat yo’lini tutgan Go’zalshohni Misrga podsho qilib yana o’z yurtiga qaytib kelishadi.

Muhammadqul Jonmurod o’g’li Po’lkan va Fozil Yo’ldosh o’g’li ijrosida yozib olingan “Yusuf bilan Ahmad” dostonining asosini vatanparvarlik va ona yurtga bo’lgan ulkan muhabbatni kuylash,adolat va haqiqat tantanasini tarannum etish, pok sevgi va sadoqatni ulug`lash, yurt daxlsizligi, osoyishtalik, erk, baxt va farovonlik uchun kurash g`oyasi tashkil etadi. Dostonda Yusuf bilan Ahmad boshchiligidagi “o’n bir ming uyli qavm”ning Xorazmga ko’chib kelishi millatning birligi, hamjihatligi va o’zaro birdamligi yo’lida olib borilgan ezgu ishlarning epik

talqini bo'lsa, qahramonlarning Misr hukmdori Go'zalshoh lashkariga qarshi kurashda ko'rsatgan mislsiz jasorati ajdodlarimizning yurt ozodligi yo'lidagi mardligi va matonatining ifodasidir.

II.2 DOSTONDAGI ASOSIY VA O'XSHASH MOTIVLARI

“Alpomish” va “Yusuf bilan Ahmad” dostonlari sujetidagi ayrim an'anaviy motivlar talqinidagi mushtaraklik, xususan, “qahramonning zindonga tushishi”, “g'anim yurt qizining zindonband qahramon holidan xabar olishi”, “musiqa asbobi yasab qo'shiq aytish”, “tutqun qahramonning qushlar orqali o'z yurtiga xabar yuborishi”, “uzoq muddatlik ayriliq ta'sirida qahramonning ota-onasi ko'r bo'lib qolishi”, “qahramonning o'z xotini to'yi ustiga kelishi”. “O'n ming uyli elat”ning bahodirlar bilan birga Isfahondan ko'chishi, tush ko'rish, shuningdek, qahramonlar qatlga hukm etilganida hech qanday yovuz kuch ularga daxl qilolmasligi kabi motivlarning kelib chiqishi bevosita “Alpomish” dostoni bilan bog'lanishiga hech qanday shubha yo'q.

Jadval-4

An'anaviy motivlar talqinidagi mushtaraklik	“Alpomish” dostoni	“Yusuf va Ahmad” dostoni
1.Qahramonning zindonga tushishi	Alpomish (7 yil)	Yusuf, Ahmad (7 yil)
2.G'anim yurt qizi zindonbanddan xabar olishi	Tovka oyim	Buviniyoz
3.Musiqa asbobi yasab qo'shiq aytish	Qo'biz	
4.Qahramonning o'z xotini to'yi ustiga kelishi	Barchin	Gulxadicha
5.Singlisi borligi	Qaldirg'och	Qaldirg'och

6.Ko'chish	O'n ming uyli elat, Kashal	O'n ming uyli elat,Xiva
------------	-------------------------------	-------------------------

Shuning uchun ham bu dostonning yaratilish davrini XVI-XVII asrlar, shakllanish o'rnini esa Xiva (Xorazm) deb belgilaydilar.

Darhaqiqat, “Yusuf bilan Ahmad” dostonida Bo’zo’g'londan arazlagan bahodirlar o’z yurtidan ketadigan bo’lishgach, “Ashirbek sardorning gapi bilan o’n bir ming uyli Isfihondan gurru-gurru bo’p, Ashirbek sardorning qishlog'i tevaragiga kelib, anjom-asboblarini tushirib, Yusuf bilan Ahmadbekka borib salom qilishi” va o’zga elga ko’chishi tasviri “Alpomish” dostonidagi “o’n olti urug’ Qo’ng’irot elidan o’n ming uyli ekin ekmoqni bilmaydigan eliboylar ayrib, Boysariga qo’shilib Kashal eliga ko’chib ketishi” motivi bilan mushtarak jihatlarga ega. Nazarimizda, qahramonlik eposining intensiv rivoji davomida shakllangan ko’pgina epik motivlar universal mohiyat kasb etgan va jangnoma dostonlar sujetining shakllanishi jarayonida xalq baxshilari o’zlarining epik xotirasida mavjud bo’lgan materiallardan unumli foydalanganlar. Shuning uchun ham “Alpomish” va “Yusuf bilan Ahmad” dostonlaridagi muayyan o’xshashliklar va mushtarakliklarni eposning stodial bosqichlaridagi o’zaro ta’sir va tarixiy-vorisiy aloqadorlik mahsuli, deb qarash maqsadga muvofiqdir. Yurtga muhabbat, mardlik va bahodirlikni tarannum etuvchi “Yusuf bilan Ahmad” dostoni sujetining arxaik shakli Orolbo’yi epik arealining eng qadimiy va boy badiiy an'analaridan biri – Xorazm vohasi dostonchiligi an’anasida qahramonlik eposining bevosita ta’sirida yuzaga kelgan. Dostonning turli versiya va variantlarida Urganch, Gurgon, Xiva, Xorazm, Shohobod (Shovot), G`ozobod (G`azovot), Vazir kabi Xorazm vohasiga oid jo’g’rofiy atamalar mavjudligi, asar qahramonining millati “o’zbek” deb ta’riflanishi (“Yusuf o’zbak oxir olar elingni”), Yusuf bilan Ahmadga homiylik qilib, hamisha qo’llab-quvvatlaydigan madadkor pirlar – Olovxo’ja, Shayx Sharif, Sulton Uvays, Hubbi, Said ato, Polvon ota, Darg`on ota singari avliyolar kulti asosan xorazmliklar orasida keng tarqalganligi ham bu epik asarning ilk namunasi Xorazm baxshilari tomonidan yaratilganligini ko’rsatadi.

Dostonning qadimiyligini asoslovchi motivlardan yana biri undagi jonli va jonsiz tabiatga murojaat motividir. Bu motiv ham juda qadimiylib, insoniyat tafakkur protsessiyasining ibridoiy ko'rinishlarini o'zida namoyon etadi. Biz bu o'rinda bandi bo'lib ketayotgan Yusuf Ahmadlarning Asqar, Polopon, Pesha tog'lariiga, gurgon daryosiga qarata qilgan murojaatlarini, zindonda yotgan paytlarida qaldirg'och va turnalarga qilgan nolai zorlarini nazarda tutayapmiz

Doston sujetiga juda ko'p milliy urf-odatlarimiz, udumlarimiz mazuni singdirilganiga guvoh bilish mumkin. Jumladan, xalqimizda»Tog'a otaning o'rnini bosa oladi» degan hikmat bor. Dostonda anash u hikmatga ishora qilib o'tilgan. Unda hikoya qilinishicha, Yusufbek bilan Ahmad Isfihon shahrining podshosi bo'lgan Bo'zo'g'lonning jiyanlari. Ahmadbekning enasi o'lib, etim bo'lib qoladi va Yusufbekning enasi La'lixon oyimni emadi. La'lixon oyim esa Bo'zo'g'lon podshoning singlisi edi. Shu-shu bolalar aka-uka bo'lib qoladi. Ularni Bo'zo'g'lonxon podsho tog'a sifatida o'z tarbiyasiga oladi. U: "Endi bular menga ham farzand bo'ldi, ham jiyan bo'ldi. Ana, endi bulardan uch narsa qarz bo'ldim: otini yaxshi qo'ydim, endi mullaga berib o'qitmog'im darkor, ham uylantirmog'im darkor, – deb ularni tutib mullaga beradi.

O'tmishda biror-bir kishining xizmatiga kirmoqchi bo'lgan kishi uning etagiga kallasini solib, so'z bergen. Xuddi shu udum ham dostonda o'z ifodasini topgan. Dostonda Bo'zo'g'lonxon podshoning sardori lashkari bo'lidan Ashirbek sardorning bu xizmatni tashlab, Yusuf bilan Ahmadga xizmatkor bo'lib ketishi, yigitchalarning etagiga kallasini solib, o'lguncha xizmatkoringman, deyishi aytiladi.

Xalqimiz katta ishni boshlashdan oldin, albatta, qon chiqarib, qurbanlik qilib, maslahat-kengash qilgan. Dostonda shu odatga ham alohida ishora qilib o'tilgan:

El og`asin, amaldorni yig`inglar,
Mollar so'yib, darrov qiling maslahat.

Quyidagi parchada urush boshlanishidan oldin hukmdor huzurida barcha beklar, xonlar yig`ilib, maslahat qilish holati tasvir etilgan: "Ana, endi hammasi

Eralixon podshoga kelib salom berdi, salom-alik qildi. Ana shu hamma kelgan odamlar “Xudo-yo bor bo’lgin! Xudo-yo davlating ziyoda bo’lsin!” – deb duo qildi. Ana endi, podsholikka maslahat tashladi. Oyxon, Kunxon, Nodirbek sulton, Sheralixon degan xonlari aytdi: – “Ey podshohim, bular ham yaxshi odamlar ekan, eshitdik. Yaxshilar bilan yaxshilarning urushmog’i hech to’g’ri emas. Avval uzr-manzur aytib ko’raylik”. Nodirbek sulton degan Eralixon podshoga qarab, bir so’z aytayapti. Ana, endi Nodirbekning Eralixon podsho, kelgan xaloyiqqa qarab aytayotgan so’zi:

Podsholikda elchi degan bir gap bor,
Tortiq qilib necha izzat, hurmatman,
Chiqib turib kelgan yovni ko’raylik.

Darhaqiqat, o’tmishda ayrim hukmdorlar yov tomonga elchi yuborish, elchiga qo’shib qimmatbaho sovg’a-salomlar jo’natish, hurmat-izzat ko’rsatish orqali qonli janglarning oldini olishga harakat qilishgan. Yuqoridagi qayd mana shu voqelik talqinini o’zida mujassamlantirmoqda. Agar yov bunga ko’nmasa, elchini nazar-pisand qilmasa, undan keyin dostonda aytiganidek, jang qilishga majbur bo’lingan:

Undan so’g’in eldan ko’p lashkar olib,
Kelgan yovman so’g’in janjal qilaylik.
Hech buzilmang Urganch elning odami,
Sarpoy kiygin, in’om-ehson olaver,
Tirqiramang, xo’p ittifoq bo’laylik,
Dushman bo’lsa so’g’in savdo solaylik.
Maslahat shul – avval ko’rib kelaylik,
Do’stmi-dushmanmi borib bilaylik,
Shunga qarab so’ngman ishni qilaylik.

Dostonda sarpo kiydirish, mehmondorchilik odobi va tamoyili haqida ham qimmatli ma’lumotlar uchraydi: «Sarpoy to’nlarni Yusufbek bilan Ahmadbekka tortdi. Bular buncha izzatni hali ko’rgani yo’q edi, buni ko’rib yuragi quvonib ketdi. Nodirbek sulton, “umring uzun bo’lsin, davlating uzun bo’lsin!”, deb qo’l

cho'zib, duo qildi. Duo qilgandan keyin Yusufbek Ashirbekning yonboshidan joy ko'rsatdi". Ushbu parchada sarpo kiydirish va bu jarayonda olqish aytish udumi aks ettirilgan.

Quyidagi tavsif orqali dostondagi personajlarning rang-barangligini ilg`ash mumkin: "Ana, endi eldan kelgan el og`alari, to'pchiboshilar, elbegilar, dono vazirlar, sap gardankash polvonlar, sap mo'ysafid qutbi zamonlar: "Ma'qul so'zga qoruv yo'q, – dedi.

Dostonda "sovchi" so'zi "yovchi" tarzida ishlatalgan: "Ana shunday katta podsho ana bu mahrambachchalarni, otlarni ko'rib, elchi yo'q, yovchi yo'q, men qizimni berdim, deb qo'ydi".

Nikoh to'y়i manzarasi tasvirlangan parchalardan birida "Kuyov o'tirsin" udumi tasviri va unga aloqador poetik aytim namunasi keltirib o'tilganiga guvoh bo'lish mumkin:

Men aystsam, qabul qilgin so'zimni,
Ovlab kelgin ko'ldan to'qli, g`ozimni,
Senga berdim Gulasalday qizimni,
Qalliqqinang qulluq bo'lsin, farzandim!
Xudo hamroh qilsin bul imonimni,
To'y qip obod qiling bu makonimni,
Yusufbekka berdim Asaljonimni,
Izzat-hurmat qulluq bo'lsin, farzandim!

Quyidagi nasriy parchada bevosita o'zbek to'ylarining manzarasini kuzatish mumkin: "Ana, bu yoqda o'choqlar o'yilib, mollar so'yilib, katta to'y bo'lib qolibdi. Ko'pkari chopishib, bo'pti katta, qiziq to'y. Hech aqlga to'g'ri kelmaydigan katta to'y bo'libdi".

Shu to'y manzarasidan so'ng o'zbeklar odatiga muvofiq kelin-kuyovni chimildiqlqa kiritish, ularga atab to'shak solish udumlari tasviri keltirilgan. Jumladan: "Hamma odam namozgar bo'lganda uy-uyiga tarqab ketdi. Kun namozgarga etdi. Ana, yangalari, kayvoni qatori bo'lib qolgan katta qizlar

chimildiqni tutib, to'shakni solib, Yusufbek bilan Gulasal oyimni tilla yogurtirilgan tomga olib borib, to'shakning ustiga ikkovini chiqarib qaytdi”.

Dostonda to'y bilan bir qatorda motam tutish udumiga ishora qiluvchi detallar ham keltirilgan. Buning bilan dostonda hayotning barcha tomonlari qamrab olingani seziladi.

Dod deb betni so'yinglar,
Qora kiyimni kiyinglar,
Akam deb sochni yoyinglar,
Ahmadjon qolgan o'xshaydi.
Shoto'ram o'lган o'xshaydi.
Voy to'ram, deb o'pkasini bosolmay,
To'ram, deb sochini yoydi Asaloy.
Voy akam, deb uvuz eti uv bo'lib,
To'loba dillari balqib suv bo'lib,
Gulasalni kelib quchoqlab oldi,
Suyangan tog`ginam, dedi Qaldirg`och.

Bu parchada erini o'ldi gumon qilib, Asaloyning aza ochishi, qaynonasi Gulasal bilan qaynsinglisi Qaldirg`ochga suyanib, sochini yoyib, dod solib yig`lashi tasvirlangan. O'zbeklar odati shunday: eri o'lган ayollar “to'ram” deb ovoz solishadi. Ko'ksiga sochini yoyib, qora kiyim kiyib, yuz-betini yumdalab, yaqin ko'rgan ayollariga suyanib, yig'i qilishadi. Shu an'anaviy odat dostonda Asaloy obrazi misolida yoritilgan.

O'zbek xalq dostonlarida badiiy tasvirlangan tushlar sinchiklab o'rganilsa , ularda xalqimizning tush ko'rish hodisasi va bu o'ziga xos tizim haqidagi e'tiqodiy qarashlari yanada oydinlashadi. Xalqimizning qadim dunyoqarashlariga ko'ra , kishi uyqudaligi vaqtida uning ruhi tanani ma'lum vaqtga tark etib, o'zga olam , tashqi dunyoda sayr-u sayohatda bo'ladi.Ruhning o'sha ko'rgan –kechirgan ,eshitgan, bilganlari tush deyiladi.

Tush motiviga xos xususiyatlardan biri uning ko'pincha boshqa motivlarni o'zi bilan birga yetaklab kelishidir. Yusuf payg'ambar nafaqat eng go'zal inson,

balki tushlarning mohir ta’birchisi ham sanalgan. Shuni inobatga olib, dostonda bosh qahramon Yusuf nomi bilan atalgani uchun, asar sujetida tush motivlariga alohida o’rin ajratilgan. Unda dastlab Go’zalshoh podshoning tushi keltiriladi. U xalqini yig`ib:

Xaloyiqlar uxlab o’zim tush ko’rdim,
Men tushimda ko’p qabohat tush ko’rdim.
Tushi qursin tabirlari ko’p yomon,
Elimda davr olgan tuysun tush ko’rdim.
Tushi qursin tabirlari ne bo’ldi?
Ikki yo’lbars misr elga keldilar,
Kelib turib menga tiklab keldilar,
Birovi o’zimga og’iz soldilar,
Tirnog’iman meni tilgan kim bo’ldi?
Vahshat yetib ik yo’lbars elimima yetdi,
Hovlilarim buzib ,osmonga otdi.
Elimdan bir chinor ko’karib ketti,
Shoxlari ko’karib osmonga yetdi.
Misrning odami ostida yotdi.
Soya bergen azim daraxt kim bo’ldi?
G’azab qip birovi changal soldi,
Tepamda tillam sochilib qoldi.

U tush bo’yicha barcha bilgirlarni, qurandoz-ta’birchilarni oldiga chaqirib, tushining ta’birini so’raydi. Lekin qurandozlari qo’rqanidan unga haqiqatni aytal olmaydilar, podsholigini andisha qiladilar. Shunda sozchi Bobo Qambar bor haqiqatni aytadi: “Davra olgan shunqor Yusuf jonimdir, kelgan yo’lbars Ahmad, Yusuf bolamdir.... Qulagan imorat – sening tanangdir”.(Bu tushdagи ikki yo’lbars-Yusuf va Ahmad, to’kilgan tilla- qon, uchgan qush-jon, qulagan imorat –tana deya ta’bir qiladi.)

Bu gapni eshitgan Go'zalshoh g'azablanib, cholni "O", enangning jig`ildoniga.., Ho', qizingning pushmaltog`iga.... – Bu aynigan cholni olib borib zindonga solinglar", –deydi. Doston voqealarining izchil davomida bu tush o'z tasdig'ini topadi. Asar oxirida Yusuf va Ahmad kelib ,bobo Qambarni zindondan ozod qiladi. Go'zalshoh mag'lub bo'ladi.

Ana shu tush motivida butun doston voqealar oldindan bashorat qilinib ,ramzlar tilida bayon etiladi. Ya'ni doston syujetining butun keyingi voqealar rivoji ana shu parchada ko'rsatib beriladi. Ushbu tush motividan keyin voqealar rivoji tezlashib, syujetning keyingi halqalari uchun vaziyat yaratiladi.

Agar dostondagi tush motivi tushirib qoldirilsa, unda syujet jiddiy zarar ko'radi. Dostondagi Misr eliga boorish, zindonga tushish, podshohning mag'lubiyati, jang-u jadal motivlari ushbu tush bilan chambarchas bog'liq holda kechadi. Tush bu o'rinda voqealar rivoji uchun asosiy podevor vazifasini o'taganini ko'ramiz.

Shuningdek, dostonda Gulasalning tushi ham keltirilgan. U o'z tushi haqida shunday deydi:

Gohi tush rahmoni, gohi shaytoni,
Tushman folning bo'lmas asli poyoni...
Chiroqqinam, yarim kecha tush ko'rdim,
Men tushimda xo'b ajoyib ish ko'rdim.
Non yegan nomardlar bunda bexabar,
Poloponda ikki otni bo'sh ko'rdim.
Ko'p quzg'un Misrdan davr olib uchdi,
Ikki birday og`angizga etishdi,
Qo'lin bog`lab ikakangni tutishdi,
Tushi qursin, ko'rib aqlim adashdi.

Shu tush ifoda etilgach, Yusuf va Ahmadning Misr elida zindonga tushishi voqeasi talqin etiladi. Bundan ko'rindiki, tush motivi doston sujetidagi voqealarni bog`lovchi halqa vazifasini bajargan.

Dostonda Go'zalshohning xizmatkori ishton-ko'ylagini chappa kiyib, duo o'qib, Yusuf bilan Ahmadbekni o'ziga qaratishi ham tasvirlangan. Bu parcha orqali xalqning muloqot magiyasiga ishonchi tasvirlangan.

«Yusuf va Ahmad» dostoni sujetida xalq bolalar o'yinlaridan bir nechasing nomi ham sanab o'tilgan: «Shu chorborg'ning ichida namozgargacha oqsuyak o'ynaydi, xossa bulbul o'ynaydi, po'ta soldi o'ynaydi, halginchak uchar edi». An'anaviy bolalar o'yinlaridan biri hisoblangan "**oqsuyak**" qoramolning iligi – katta baqaloq suyagi, qo'yning baqayi yoki siyrog'ini otib o'ynaladi. Bu o'yin ba'zi joylarda kun botish oldidan o'ynalsa, ko'p hududlarda oy to'lin bo'lgan kechalari o'ynalishi an'anaga aylangan. "**Halginchak**" – ko'klamda qiz-juvonlarning bog`lardagi mevali daraxtlarga arqon tashlab, arg`imchoq uchishi. An'anaga ko'ra, qiz-juvonlar, yosh bolalar to'planishib, bog`dagi katta daraxtlarning baquvvat shoxlariga arqon tashlab, arg`imchoq – halinchaklar yasashganlar va navbat bilan arg`imchoq uchishgan. Folklorshunos olim O.Safarovning aniqlashicha, go'yo arg`imchoq uchayotgan kelinchak daraxt uchidan yaproq uzib ololsa, jamiki o'ylagan niyatlariga yetar ekan.

«Yusuf va Ahmad» dostonida musiqa asbobi – sozning ishlanishi ham tasvirlangan. Unda "Soz nimadan bo'ladi?" degan savol keltirilgan bo'lib, bu savolga musiqashunoslар piri sanalgan Bobo Qambar tilidan: "Charxning parrasidan, ustaning harrasidan, cho'p sop, tesha, archa, tol cho'pak, elim – shundan bo'ladi" degan javob keltiriladi.

Doston syujeti mana shunday turli motivlarga juda boydir. Unda rang-barang motivlar yaxlit tizim ko'rinishida birikib, dostonning g'oyaviy-badiiy mazmunini hosil qilgan.

Ikkinci bob yuzasidan chiqarilgan xulosa shulardan iborat:

1. Syujet barcha badiiy asarlarning asosi hisoblanaadi. Ushbu doston syujeti ham o'ziga xos tuzilishga ega hisoblanadi. Syujet badiiy shaklga xos eng muhim element hisoblanaadi. Asarda bir-biriga bog'liq holda kechadigan, qahramonlarning xatti-harakatlaridan tarkib topuvchi voqealar tizimidir. Syujetga ega bo'lish barcha turdagи badiiy asarlarga xos va mos xususiyat hisoblanaadi. Ushbu doston ham

o'ziga xos syujet chizig'iga ega hisoblanadi.Voqelar ixchil va qiziqarli tarzda hikoya qilinadi. Dostonda hayvon kulti obrazi ishtirok etmaganligi dostonning bizga yetib kelguncha qadar ancha o'zgarishlarga uchraganligini ifodalaydi.Yusuf bilan Ahmad o'rtasida deyarli ziddiyat yo'q bo'lib, ularning munosbatlarida inoqlik va hamjihatlik asar oxirigacha hukmrolik qiladi. Doston syujetida barchamizga tanish chizgilarga duch kelishimiz mumkin. Dostonni o'qir ekansiz undagi ayrim voqelar "Alpomish" dostonini eslatib yuboradi.Har ikkala dostonda ham uchrovchi motivlar, tanish chizgilar hamda holatlar ,”Yusuf va Ahmad” dostoniga “Alpomish” dostonining ta'sirini sezganday bo'lasiz. Asarning boshida faqat Yusuv va Ahmadning tug'ilganigi aytilsa, keyinchalik uning singlisi Qaldirg'och tilga olina boshlaydi,uchlik paydo bo'ldi, “Alpomish” dostonida ham Alpomish, Qaldirg'och va Barchinlar uchligi ishtirok etgan. Ikkala dostonda ham o'z yurtidan quvilish, dushman yurtida yetti yil asir bo'lib qolish kabi voqealar hikoya qilinadi.

2.Dostonda turli xil motivlar o'zaro birikib ,qiziqarli syujet chizig'ini hosil qiladi. Uni o'qish davomida xalq o'yinlari ,marosimlar tasviriga duch kelamiz . Dostondagi tush motivi o'ziga xos salmoqqa ega, dostonning boshida ko'rilgan tush orqali keyingi bo'ladigan voqealarga ishorani sezish mumkin.

Asarda bir nechta milliy urf-odalarimiz ham tasvirlanadi. Milliy urf-odatlarni, an'ana va qadriyatlarni anglash milliy g'ururni ham shakllantiradi. Milliy g'urur – millatning o'zligini, moddiy va ma'naviy merosini anglash va chuqur his qilish orqali o'z xalqi bilan faxrlanish tuyg'usidir.Shunday ekan ,biz o'z madaniy merosimiz hisoblangan xalq dostonlari va ularda tasvirlangan urf-odatlarimizni yanada chuqurroq o'rganishimiz va qadrlashimiz zarur.

III-BOB.”YUSUF VA AHMAD DOSTONINING LINGVOPOETIK TAHLILI

III.1 DOSTONDAGI BADIY SAN'ATLARNING ESTETIK VAZIFALARI

O’zbek xalqining jahon xalqlari orasida tutgan o’rni ,insoniyat tamaddunlariga qo’shgan munosib hissasi ,avvalo, xalq og’zaki ijoddi na’munalari misolida yaqqol ko’rinadi.Xalqning til boyligi birinchi galda uning folklorida namoyon bo’ladi. Biror bir xalqning qanday xalqligini bilish uchun uning folklorini o’rganishh zarur. Folklorda xalqning til imkoniyatlari, mushohada tarzi ,ijodiy quvvati aks etgan bo’ladi.O’zbek xalq og’zaki ijodi na’munalar orasida doston eng yirik hajmli va keng tarqalgan janr hisoblanadi.

Yusuf va Ahmad dostoni jangnoma dostonning ajoyib na’munasi hisoblanadi. “Tarixiy va afsonaviy jang-u jadallar, ona yurtni himoya qilish, vatan daxlsizligi va ozodligi uchun kurash g’oyalarini aks ettirgan o’zbek xalq dostonlari jangnoma dostonlar sirasiga kiritiladi.” Dostonda juda ko’p badiiy san’at turlaridan mahorat bilan foydalanylган. Ular dostonning ta’sirchanligini oshirgan. **Mubolag’a, istiora, tashbeh, tadrij, talmeh, anafora, metafora, ,tarse’, tamsil** kabi she’riy san’atlarning go’zal na’munlari yaratilgan.

Jadval-5

1	“Ashirbek sardorning har ko’zi mash’alday bo’lib, har tuklari choponini teshib o’taverdi. Ana shunda hech kim toqat qilolmadi”.	Mubolag’a
2	“Yusufbek joyidan turib,qo’lini alif-lom qilib,kallasini pastga ham qilib,esli boynog’i gapirgan odamlarga qarab bir so’z dedi”-	Harf
3	Ko’p gapirmang, ko’ngillarim cho’kadi, Narvonni ham tikka qo’ysa, yoronlar, Poya-poya yurgan odam chiqadi, Podshoning qullug’in qilgan yaxshidir.	Tamsil
4	Xudoning birligin bilgan yaxshidir, Podshoning izzatin qilgan yaxshidir.	Tarse
5	Yomg`ir yog`sa yona maydon tayrilsin,	Aliteratsiya

	Yomon odam qanotlari qayrilsin. So'lqillagan semiz qizlar, Yorining qoshiga yaxshi.	
6	"Ha, bizlar sizni podsho qildik. Nima desangiz, banda farmoningizmiz, tirik bo'lsak, bir tepadamiz, o'lik bo'lsak bir chuqurdamiz"	Tazod
7	"Yov bo'lmayin ajal to'nin bichmaydi"	Tashxis
8	Dushmanlarga savdo soldik, Temir edik cho'yan bo'ldik,	Tadrij
9.	Asli Chingizzon avlodi, O'zi Juldirgan zuryodi.	Talmeh
10.	Qorong`i kun solib qo'yay boshiga, Sap yomonlar kelar emish qoshiga.	Epitet (sifatlash)
11.	Eralixon podsho, bering javobni, Aytuvchi axmoqdir, tinglovchi dono	Tazod
12	Yomon ish elatga paydo bo'libdi, Kecha-kunduz tinmay qilinglar mehnat.	Istiora (Tabu)
13	Rustamday savash bo'lar, Bu cho'llar o'likka to'lar, Bo'lar Alining savashi. Yoki: Bu taloto'p yomon bo'ldi, Urushga kirganda Rustamcha bordir, Biri Haydar, biri Bastamcha bordir, Saxiylik bog`ida Hotamcha bordir,	Talmeh
14	Ahmadbekning o'zi juda o'r edi, o'rdan o'tib ketgan zo'r edi, o'ziga yarasha esi bor edi.	Saj
15	Qirq yigitning o'zingdan ham ziyoda, Qirq yigitning qulluq bo'lsin, Yusufjon.	Anaf ora
16	Sen – podshosan, men – xizmatkor, Yusufjon. Qor yog`may tog`larni g`ubor cholmasin, Mard yigitga dushman savdo solmasin, Sen – podshosan, men – posbonman, Yusufjon. Tag`in-a ko'nglingga malol kelmasin.	Paralelizm

Dostonlarda qahramonlar yoki holatlar tasvirida **mubolag'aga** keng o'rini beriladi. Ushbu dostonda ham Ashirbek sardorning yurtdan ketish xabarini eshitgan paytidagi holatini tasvirlashda ushbu she'riy san'atdan foydalanilgan:

“Ashirbek sardorning har ko’zi mash’alday bo’lib, har **tuklari choponini teshib** o’taverdi. Ana shunda hech kim toqat qilolmadi”.

Harf (kitobat) san’ati: “Yusufbek joyidan turib,qo’lini **alif-lom** qilib,kallasini pastga ham qilib,esli boynog’i gapirgan odamlarga qarab bir so’z dedi”- deya tasvirlanadi. Qahramoning qo’l harakatarini tasvirlashda arab alifbosidagi harflardan foydalanilmoqda.

Ko’p gapirmang, ko’ngillarim cho’kadi,

Narvonni ham tikka qo’ysa, yoronlar,

Poya-poya yurgan odam chiqadi,

Podshoning qullug’in qilgan yaxshidir.

Yusufbek o’z fikrini hayotiy misol bilan isbotamoqda, ushbu o’rinda **tamsil** san’atidan foydalanilgan.

O’liklarni bog` bug`doyday chotamiz,

Amri podsho vojib, ketinglar, depti.

Ikkinchi she’riy parchada bug`doy donalarini yopishib, kuch olib turgan poyasidan ajratish holatiga, odamlarni hayotdan ajratish holatiga o’xshatilmoqda. Ayni paytda buni **“husni ta’lil”** san’ati sifatida ham baholash mumkin.

Dostonda **alliterastiya**, ya’ni **tavze’** – bir xil tovushlar takrori, asoslangan san’at turi qo’llangan misralar ham ko’p uchraydi:

Yomg`ir yog`sа yona maydon tayrilsin,

Yomon odam qanolari qayrilsin.

So’lqillagan semiz qizlar,

Yorining qoshiga yaxshi.

Keltirilgan baytlarning dastlabki ikkitasida “y” harfi bilan boshlangan yomg`ir, yog`sа, yona, yomon so’zlari, keyingi baytda esa “s” harfi bilan boshlanuvchi so’lqillagan va semiz so’zlari bir o’rinda ketama-ket kelishidan yuqori ohangdoshlik yuzaga keltirilmoqda.

Toshga tegib tirnoqlarim to’kilib,

Tengsiz g`animlarga men bandi bo’lib,

Bu misralarda “t” harfiga asoslangan alliterastiyadan foydalanilganligi kuzatilmoxda.

Boshqa dostonlar kabi “Yusuf va Ahmad” dostonining nasriy qismida **saj**’dan juda keng foydalanilgan: “Ahmadbekning o’zi juda **o’r** edi, o’rdan o’tib ketgan **zo’r** edi, o’ziga yarasha esi bor edi.

Eralixon podsho farmon qildi: “Beklarning oyog’ining ostiga olacha, gilam to’shab, chang o’rnatmay shaharga olib kiringlar”, – dedi. Odam bitgan Yusufbek bilan Ahmadbekning oldiga **chiqishib** ketdi. Gilam, olacha keta-ketguncha to’shab, Yusuf bilan Ahmadjonning oldiga er yorilib odam chiqdi. Karnay, surnay, polopon shodiyona qo’yilgan, erlar qo’rg’oshinday bolqib ketgan, xotin, bala-chaqalar tom-tomning boshida Yusuf bilan Ahmad podshoni ko’ramiz, deb **tiqilishib**, oriqlari o’rtalikda juda turtki eb **siqilishib**, bo’yi kaltalari bo’yi uzunlarga picha past bo’l-past bo’l, **deyishib**, men ham ko’rmay qolamanmi, deb **janjallashib**, tentak xotinlar oldinni olaman deb nag`ma-faryod **qilishib**, birov-birovi bilan yulishib, kaptarday bo’ylab qarab turibdi.

Dostonda qahramonlarning ruhiy holatini, portretini, xarakter-xususiyatini tasvirlashga ham alohida e’tibor qaratilib ,**saj**dan unumli foydalanilgan.

“Shunda Nodirbek sultonning kelgan o’n odami bularning Rustamga o’xshagan g`ayratini ko’rib, **joni chiqay deb ketdi**, burkillab jon **burniga etdi**, qulog`i tos **tepadan o’tdi**, ko’zlari ola-bula bo’lib **qo’rqib ketdi**”, – parchasida keltirilgan “joni chiqay deb ketdi”, “burkillab jon burniga etdi”, “qulog`i tos tepadan o’tdi”, “ko’zlari ola-bula bo’lib” iboralarining bari “qo’rqib ketdi” degan tushunchani anglatadi va personajning ruhiy holatidan darak beradi.

Dostonda Gulasal oyimning portreti chizilgan: “shunday qiz: namoz vaqtি chiqqan Tong yulduziday ko’zi, er yuzida nimaiki maqtasang, shunday suluv o’zi, lablari **moyday**, qoshlari **qaldirg`ochday**, ko’ngli **Hotamtoyboyday**, ertang choy, oqshom palov, muhrlab qo’yan **qog`ozday**; suv ichsa tomog’idan, go’sht esa biqinidan, tishim qamashmasin, deb qora uzumlarni tanglayi bilan ezib yutgan, kindigigacha qop-qora bo’lib botgan, suluvligiga kechasi uylar yop-yorug` bo’lib yotgan, har zamonda boqqa chiqqanda, ozib-yozib falakati qilib, bir odam oldidan

chiqib ko'rib qolsa, suluvgiga mast bo'lib, o'n kun behush bo'lib o'zidan ketgan".

Dostonda Qorako'z qizning portreti ham alohida e'tiborni tortadi. Unda saj' vositasida **Qorako'z** qiz shunday tavsiflanadi: "Ko'pam oriqmas, g'o'ladan kelgan, to'ladan kelgan, saraton yulduzli, shakar-shirin so'zli, o'zi ham bejoy sho'xgina, ming tillalik har bir nozi, tishi oppoq **durday**, badani dalvda yoqqan **qorday**, suluvgili jannatdagи **hurday**, kanizlarining hech yomoni yo'q, hammaginasи **birday**, uyda yotadi, bari yoqni yuzining suluvgili yop-yorug` qilib ketadi".

Dostonda Nodirbekning xotini xarakteri quyidagicha tavsiflangan: "...dimoqqinasi **choqqina edi**, uyqusi yo'q **soqqina edi**, dahsari unday, noni bilan qoringinasi **to'qqina edi**, otini Buvish kayvoni der edi, Hojar buviga qarab, Gulasal oyimga qarab, so'z boshlab, qulluq bo'lsin, deb bir so'z aytayapti.

Dostonda zolim shoh Go'zalshohning g'azablangandagi ruhiy ko'rinishi **o'xshatish va mubolag'a** vositasida shunday tasvirlangan: "...podsho buni ko'rib, joni chiqib ketdi, shomurti shopday bo'lib, labi moy solgan hiqday bo'lib, har ko'zi **toshtovoqday** bo'lib, g'azabi o'z burnidan chiqib, burqirab qo'yaverdi. Qahri kelib, yomon ilonday zahri kelib, beklarga qarab, bir so'z aytaverdi".

Ma'lumki, antonim so'zlardan **tazod** hosil qilinadi. Bu lafziy san'at turi ham dostonning ko'p o'rinalarda uchraydi. Dostonda tazod san'ati ham nasriy, ham she'riy parchalarda uchraydi:

"Ana, endi shu oldida o'tirgan jami qorako'zlar: – "Ha, bizlar sizni podsho qildik. Nima desangiz, banda farmoningizmiz, tirik bo'lsak, bir tepadamiz, o'lik bo'lsak bir chuqurdamiz" , – dedi.

Dostonda «urush» so'ziga tabu saqlab, **istiora** qilib, uni «yomon ish» deb aytilgani kuzatiladi:

Yomon ish elatga paydo bo'libdi,

Kecha-kunduz tinmay qilinglar mehnat.

Dostonda juda ko'p qo'llangan san'atlardan biri **talmehdir**:

Rustamday savash bo'lar,

Bu cho'llar o'likka to'lar,

Bo'lar **Alining** savashi.

Yoki:

Bu taloto'p yomon bo'ldi,

Urushga kirganda **Rustamcha** bordir,

Biri **Haydar**, biri **Bastamcha** bordir,

Saxiylik bog`ida Hotamcha bordir,

“Bo’lar **Alining savashi**” deganda Ali ibn Abu Tolib nazarda tutilgan bo’lib, qurayish qabilasining hoshimiylar xonadoniga mansub bo’lgan bu zot payg`ambarimiz Muhammad alayhissalomning amakivachchasi va kuyovi hisoblanadi. U 656 yilda xalifa Usmon vafotidan keyin Madinada hokimiyatni egallaganligi uchun “to’rtinchi xalifa”, choriyorlardan biri sifatida e’tirof etiladi. 661 yilda vafot etgan Ali ibn Abu Tolib Kufa shahrida dafn etilgan.

“Rustamday savash bo’lar» yoki «Urushga kirganda Rustamcha bordir” deyish orqali o’zining benihoya pahlavonligi bilan nom qozongan xalq qahramoni Rustam nomiga ishora qilinmoqda. Xalq og`zaki badiiy ijodida “Rustami doston” deb ta’riflangan bu zot, afsonalarga qaraganda, Rustam kayoniylar sulolasи hukmronlik qilgan davrda yashab o’tgan. “Jahon pahlavoni” nomini olgan Rustam seistonlik bahodir Zol bilan Qobil hukmdori Rudobning qizidan tug`ilgan bo’lib, nihoyatda baquvvatligi, jangu jadallarda mislsiz qahramonlik ko’rsatganligi bilan mashhur bo’lgan. Bu mifonim qadimgi so’g`d tilidagi “Rotastaxm” so’zidan kelib chiqqan bo’lib, ma’nosи “bahodir”, “pahlavon” demakdir.

“**Biri Haydar**, biri **Bastamcha** bordir” deganda, yana rivoyatlarga tayanib, islomda “choriyorlar”ning to’rtinchisi, Muhammad alayhissalomning kuyovi Abi ibn Abu Tolib nomiga ishora qilinmoqda. Chunki uni onasi “Haydar” deb ham chaqirar ekan. Shuning uchun xalq kitoblari va qissalarida hazrati Ali “Haydar”, “Haydari krror” deb ta’riflanadi. Bir rivoyatda ayttilishicha, “Ali Muhammad payg`ambarning amri bilan ajdahoni ikki bo’lak qilib tashlagach, payg`ambar bir necha marta “Ali Haydar” deb shu ismni takror aytgan. Shundan so’ng to’rtinchi xalifa Haydar, ya’ni “ilonlar ustidan g`olib keluvchi” laqabini olgan”.

“Saxiylik bog`ida Hotamcha bordir” deganda, benihoya saxiy va qo`li ochiq kishi sifatida tasvirlangan Hotamtoy obraziga ishora qilinadi. Bu obrazning tarixiy asoslari qadimgi arab folklori an'analariga borib taqaladi. Uning ismi aslida Hotam ibn Tay bo`lib, xalq tilida “Hotamtoy” bo`lib ketgan. XIX asrning oxirida o`zbek tiliga tarjima qilingan “Hotamnoma” asarida keltirilishicha, o`zining benihoya saxiyligi, qo`li ochiqligi va muruvvatliligi bilan dong qozongan Hotam Muhammad payg`ambarimiz zamonasidan 150 yil avval vafot etgan. “G`iyos ul-lug`at”da qayd etilishicha, “tay – Yamandagi qabila nomi bo`lib, Hotam toyi shu qabilaga mansubdir”.

Asli **Chingizzon** avlodi,

O`zi Juldirgan zuryodi.

Bu misralarda Chingizzon ismi talmeh sifatida keltirilmoqda. Bunda “Asli Chingizzon avlodi” deyish orqali xalq rivoyatlariga ishora qilinayotganini anglash mumkin. Binobarin, rivoyatlarga qaraganda, qadimda ba`zi bir o`zbek urug`larining kelib chiqishini Chingizzon avlodlari bilan bilan bog`lab talqin qilish an`anasi mavjud bo`lgan. Xususan, Abulg`oziyning “Shajurai tarokima”, “Shajurai turk” asarlarida, mirzo Ulug`bekning “To`rt ulus tarixi” asarida ham ana shu an`ana o`z ifodasini topgan. Masalan, qatag`on, do`rman va laqay urug`larining kelib chiqishi to`g`risidagi etnogenetik afsonada bu urug`larning eng katta bobokaloni Do`g`on so`qir Chingizzonning otasi sifatida tasvirlangan.

“Yov bo`lmayin ajal to`nin bichmaydi”, – deganda ajal insonga xos harakatlanmoqda. . Jonsiz narsalarga insonga xos gapirish harakatining nisbat berilishidan **tashxis** san`ati hosil bo`lishi ma`lum.

Quyidagi misralarda **tadrij** san`atining guvohi bo`lish mumkin:

Dushmanlarga savdo soldik,

Temir edik cho`yan bo`ldik,

Misralarda obrazning va mazmunning o`sib, rivojlanib borganligida tadrij san`atiga xos xususiyatni kuzatish mumkin.

Dostondagi she`riy parchalarning ohangdoshligini kuchaytirishda **tarse'** san`atining o`rni alohida sezilib turadi:

**Xudoning birligin bilgan yaxshidir,
Podshoning izzatin qilgan yaxshidir.**

Ushbu misralardagi har bir so'zning o'zaro ohangdoshlik, qofiyadoshlik hosil qilishi tarse' san'atini vujudga keltirmoqda

Ulardan biri **o'xshatish** (tashbeh) san'atidir. Jumladan, Bo'zo'g'lonxon podsho achchig'i qattiq kelib, katta ajdarho ilonday qo'zg'olib, o'z qo'li bilan xat bitib, birovdan berib yubordi" deyilganda, jahldan to'lg'angan podsho holati beshafqat ajdahoga o'xhatilmoqda.

Dostonda juda ko'p badiiy san'at turlaridan mahorat bilan foydalanilgan. Ulardan biri **o'xshatish** (tashbeh) san'atidir. Jumladan, Bo'zo'g'lonxon podsho achchig'i qattiq kelib, katta ajdarho **ilonday** qo'zg'olib, o'z qo'li bilan xat bitib, birovdan berib yubordi" deyilganda, jahldan to'lg'angan podsho holati beshafqat ajdahoga o'xhatilmoqda.

Qorong'i kun solib qo'yay boshiga,

Sap yomonlar kelar emish qoshiga.

Bu misralarda **sifatlash** (epitet) ham alohida ko'zga tashlanib turibdi. "Qora kun" – baxtsiz, qiyinchiliklarga to'la hayot tushunchasini o'zida mujassamlantiradi. "Sap yomonlar" – ko'p yomonlar degan ma'noni anglatadi.

Dostonda **anafora** qo'llangan misralar ham borligi ko'zga tashlanadi. Masalan:
Baxti qaro yigit yurar piyoda,
Rizqi ulug` davron surar dunyoda,

Qirq yigiting o'zingdan ham ziyoda,

Qirq yigiting qulluq bo'lsin, Yusufjon.

Parallelizm san'ati xalq lirik asarlarida yorqin ko'zga tashlanib turadigan badiiy usullardan biridir.

Masalan:

Podsholarga menday polvon lozimdir,

Sen – podshosan, men – xizmatkor, Yusufjon.

Qor yog`may tog`larni g`ubor cholmasin,

Mard yigitga dushman savdo solmasin,

Sen – podshosan, men – posbonman, Yusufjon.

Tag`in-a ko`nglingga malol kelmasin.

Ikkita mazmunan yaqin voqea-hodisaning ramziylik va reallik tamoyili asosida yonma-yon keltirilishidan hosil bo`ladigan bu san`at turi obrazlilik va ohangdorlikni, badiiy ta`sirchanlikni yanada orttirishga xizmat qiladi.

III. 2. DOSTONDA UCHRAYDIGAN XALQ IBORALARI

“Yusuf bilan Ahmad” dostonida juda ko’p iboralar, maqollar, hatto qarg`ishlar-u olqishlar qo’llangan. Masalan, Bo’zo’g’lonxon podshoga saroy amaldorlari yetimlikdan boqqan jiyanlarini “Sizga xiyonat qilishmoqda” deb aytishganida, u afsus chekib: “Hay attang-ay. Shu to’qson ikki mashoyixning aytgan gapi rost ekan. **“Qo’zi boqqan moy oshaydi, etim boqqan qon oshaydi”** degani rost ekan. **“So’nggi po’shaymon o’zingga dushman”** deb, o’z nutqida ikkita xalq maqolidan foydalanadi.

Yusuf bilan Ahmadbek xayr-ma’zur aytayotganda, o’z nutqlarida: **“Yomon ayg`ir enasiga chopadi”**, degan xalqona gapni qo’llashadi. Bu gapni yigitlar el orasida darrov **“Tog`asi bilan urishibdi”**, degan gap chiqmasligi, do’st-u dushman malomat qilmasligi uchun aytadi.

Bundan ko’rinadiki, dostonda qo’llangan har bir maqol va ibora qahramonlar nutqiga mahorat bilan, o’rinli singdirilgan. Ular orqali voqealar rivoji, vaziyat, qahramonlar ruhiy holati ochib beriladi.

Jadval-6

1.	Qo’zi boqqan moy oshaydi, etim boqqan qon oshaydi”	Hozirgi kunda “Yetim boqsang ,og’zi burning qon bo’lur” shaklida mavjud
2	“So’nggi po’shaymon o’zingga dushman”	Pushaymonlik tuyg’usi haqida

3	“Yomon ayg`ir enasiga chopadi	
4.	Katta podsho ko’zlariga surtibdi, To’g`ri o’zar, egri ozar, xaloyiq.	To’g`rilik haqida
5.	“Zaqqum quyay ichayotgan oshiga”	Zaharli daraxt haqida
6.	“Ota rasm – qochuv, pisuv bizda yo’q”	To’y kunitagi marosim
7.	“Qizlarga korson-korson unni ko’tartdi”	To’ydagi marosim
8.	“Xizr bo’lgay er yigitning yo’ldoshi”	Mard yigitlarga doim omad kulib boqishi haqida
9.	Laylakqor yog`ayotganday bo’lib	Bahorda yoqqan qor haqida
10	“Vo kunim, deb kiyay yorning ko’kini”	Aza tutish haqida
11	“Suvda bordir odam obi”	Suv odami borligi haqida
12	“Boshimga yiqildi bul etti osmon”	Musibatning og’ir yuki haqida
13	«Xudo bergen mehmon atoyi xudo”,	Mehmon kutish haqida
14	“Tulporning toyi bo’lmas, xasisning boyi”,	Xasis odam hech qachon to’ymsligi haqida
15	“Ma’qul so’zga qoruv yo’q”,	Yaxshi maslahat haqida
16	“Bergan xudoga yoqibdi”,	Saxiy bo’lishning yaxshi ekanligi haqida
17	“O’lik arslondan tirik sichqon avlo”,	
18	“Qazoga rozi, baloga shukur”	Taqdirga rozi bo’ish haqida

Dostonda maqollar nasriy bayon qismida ham, she’riy bayon qismida ham uchraydi. Jumladan, undagi she’riy parchalardan birida shunday deyiladi:

Yaxshi odam bu dunyoda xor bo’lmas,

Tubli odam parcha nonga zor bo’lmas.

Katta podsho ko'zlariga surtibdi,

To'g' ri o'zar, egri ozar, xaloyiq.

Dostonning nasriy bayon qismida yana “O'ttiz tishdan chiqqan gap o'ttiz urug`gacha etadi”, “Ucholg'on tek turmas”, “Arab o'chini qirq yilda olibdi”, “Mo'ltonidan botir chiqsa, chodirini talarmish”, “O'lik arslondan tirik sichqon avlo”, “Tusi yaxshidan to'ngilma”, “Kel-e, eson qulga mol bitar”, “O'lganing davosi ko'mmoq”, “Davlatim egiz, mehnatim egiz”, “Ma'qul so'zga qoruv yo'q”, “Puli yo'qning tili yo'q”, “Yo'l azobi – go'r azobi”, “Qazoga rozi, baloga shukur” kabi maqollar “deydi”, “degan ekan”, “deganakan”, “degan bir gap bor edi”, “degan burungidan qolgan bir naqliyot bor”, “degan ota-bobodan qolgan gap bor edan” kabi ishoralar orqali matnlar mazmuniga singdirib yuborilgan.

Ta'kidlanganidek, dostonda qarg`ishlar ham keltirilgan. Shunday qarg`ishlarning biri qush tilidan berilgan: “Bular Isfihonda mullada o'qib yurganda, bir tilda hud-hud der ekan, o'zbaklar olapopish der ekan, bir kun machitga kelayotganda olapopishning uyasini tepib ketdi. Onasi kirolmay ikki kun oradan o'tdi. Olapopishning bolalari ochdan o'lib qoldi. Shunda olapopishning onasi qarg`adi: “Xudoyo, bor xudoyo, shu ikki mullabachcha mening bolalarimday bo'lib o'lsin”, – dedi. Olovxo'ja shayxi, Sharof eshoni olapopishga aytди: – Ey hayvon, qarg`ama, sening ham qarg`ishing ikki bo'lmasin, bachchalar etti yil xorlik-zorlik ko'rib, dushmanning qo'liga bandi bo'lsin, – dedi. Ana shuni shu yerda pirlar rivoyat qildi. Qushning bolasi o'lganligi sababdan etti yil o'limning o'rniga zindon bo'ldi”.

Dostondagi yana bir ibora “**og`uyli qilish**” iborasidir. O'tmishda Xiva xonligida muayyan urug` va qavm itoatsizlik qilsa, ularning yuqori mavqega ega bo'lgan taniqli kishilarini ma'lum muddat garovda ushlab turish orqali ular ustidan humkronlik qilish usuli “og`uyli qilish” deyilgan. Bunday kishilar xon o'rdasida maxsus qurilgan oq o'tovda yashaganlar, ba'zan ular istiqomat qiladigan o'tov ustiga oq kigiz yopib qo'yilgan. Shuning uchun ham bunday odamlar “oquyli” deyilgan. Dostonda Bo'zo'g'lonxon podsho jiyanlarining “xiyonati”dan xabar

topgach, ularni “og`uyli” qilmoqchi bo’ladi. Bundan oldin u jiyanlariga ariza xat yozib jo’natadi. Unda shunday deydi:

O’g’ri, kazzob kelar emish qoshiga,
Zaqum quyay ichayotgan oshiga,
O’lganlarning quzg’un qo’nar go’sh[t]iga,
Cho’q savdolar solay o’zim boshiga,
Bir shaharda ikki yo’lbars nem ishlar?!

“Zaqqum quyay ichayotgan oshiga” iborasi tilimizda “eyotganini zahar-zaqqum qilmoq” tarzida ko’p uchraydi. “Zaqqum” so’zi aslida arabcha bo’lib, do’zaxda o’sadigan bir daraxt nomini bildirgan. “Navoiy asarlari lug’ati”da ham bu so’z “mevasi juda achchiq bir daraxt; zahar, og’u” deb izohlangan va “zaqqumi jahim” iborasi “jahannam zaqqumi” tarzida sharhlangan. Do’zaxda o’sadigan Zaqqum daraxti haqidagi tasavvurlar boshqa turkiy xalqlar folklorida ham mavjud.

“Ota rasm – qochuv, pisuv bizda yo’q” – ayrim joylarda qiz bilan yigit unashtirilgandan keyin kuyovning to’ygacha qayinlarining ko’ziga ko’rinmay, odob saqlab yurishi “qochuv” deyilgan. Hatto to’y kuni kelin olib kelinganda ham kuyov kelinni ulovdan ko’tarib olguniga qadar odamlar ko’ziga ko’rinmasdan jo’ralarining panasida yashirinib turgan. Qashqadaryo viloyatining Bahoriston tumanida nikoh to’yi kuni ayollar kelinni kuyovnikiga olib kelgunga qadar kuyov biror og`aynisining uyida yashirinib turgan. Kelin kuyovnikida chimildiqqa kirgandan keyin yangalar “Kuyov qochdi-yu, kuyov qochdi!” – deb qichqirishgan. Shunda kuyovjo’ralar darhol kuyovni yashiringan joyidan “topib kelishgan” va kelinning oldiga kiritib yuborganlar.

“Qizlarga korson-korson unni ko’tartdi” – bu o’rinda o’zbek nikoh to’yi marosimining an’anaviy uzvlaridan biri – “un surtdi” – kuyovning uyiga kelin tushirib kelgan qudalarning peshanasiga un surkash udumi o’z ifodasini topgan. An’anaga ko’ra, qudalarni kutib olish chog`ida kuyov tomonning qarindosh ayollaridan bir nechasi qo’llarida bir tovoq un olib kutib turadilar. Qudalar etib kelishgach, salomlashish asnosida ularning peshanalariga un surkaydilar. Shunday qilinsa, ularning yo’li oq bo’lib, poyqadami qutlug` kelarkan. Ayrim joylarda kelin

kuyovning uyiga olib kelingandan so'ng u bo'sag'ani hatlab ichkariga kirayotganda kuyovning yangalaridan biri “Kelinimiz unli-moyli bo'lsin!” – deb kelinning peshanasiga un surkab qo'yadi.

“Qizilbosh” – tarixiy manbalarda keltirilishicha, birinchi safaviy hukmdorining otasi shayx Haydar qo'shindagi sarbozlarga o'n ikki shia imomi sharafiga o'n ikki yo'l-yo'llik qizil matodan salsa o'rabi yurishni buyurgan. 1487-1524 yillarda Eronda hukmronlik qilgan safaviy hoqoni shoh Ismoil qo'shinidagi navkarlar ham shunday salsa o'rashgan. Ana shundan safaviy hukmdorlarga tobe bo'lган kishilar “qizilboshlar” deb atala boshlangan. XVI asrning oxirlaridan bu nom Eronda keng tarqalgan. Dostonda “qizilboshlar” so'zi Yusufbek bilan Ahmadbekning epik dushmanlarini bildiruvchi atama sifatida qo'llanilgan.

“Xizr bo'lgay er yigitning yo'ldoshi” – turkiy xalqlar folklorida epik qahramonning homiysi sifatida talqin qilinuvchi mifologik personajlardan biri Xizr bo'lib, u xalq qarashlariga ko'ra ajdodlar ruhining epik timsoli, mushkul ahvolda qolganlarga madad qo'lini cho'zadigan afsonaviy homiy, donishmand, obi hayot chashmasining sohibi hisoblanadi. Mifologik tasavvurlarga ko'ra, Xizr doimiy barhayotlik, o'lmas tabiat va obi hayot timsoli hisoblanadi. Ertak va dostonlarimizda bu mifik personaj adashgan yoki mushkul vazifani bajarishni zimmasiga olgan epik qahramonga yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi, zarur bo'lganda o'z panohiga oluvchi afsonaviy homiy, qahramon xarakterini to'ldiruvchi obrazlardan biri sifatida gavdalanadi. Shuningdek, O'rta Osiyo xalqlarining obi hayot suvi bilan to'g'risidagi mifologik tasavvurlari ham bevosita Xizr bilan bog'liq holda talqin qilinadi.

“...Laylakqor yog`ayotganday bo'lib” – xalqimizda erta baxorda laylak uchib kelgandan so'ng yoqqan qor “laylak qor” deyiladi. Binobarin, xalq taqvimiga ko'ra hut oyida “qush qanoti qori”, “turna qori”, “ko'k qarg'aning qori”, “ko'k qarg'aning sovug'i”, “laylak qor” kabi muddatlar mavjud bo'lgan. Toshkent viloyatining Pskent tumani cho'ponlari ko'klam kunlari bexosdan yoqqan pag`a-pag'a qor bilan “laylak qor” keladi, deydilar. Afsonaga ko'ra, laylakning qo'lting'i ostida “kampir momo navro'zak” ham kelar emish, chunki bu kichkinagina qush

tog`larning dovonidan o`zi oshib o`tolmasligi uchun laylakning qo`ltig`ining tagidagi patiga yopishib olib o`tar ekan.

“Vo kunim, deb kiyay yorning ko’kini” – an'anaga ko’ra, xalqimizda azadorlik belgisi sifatida ayollar ko’pincha qora yoki ko’k rangli matodan kiyim kiyishgan. Buning sababi, ko’k rang osmon, samo timsoli sifatida tasavvur qilinishi bilan bog`liqdir.

“Suvda bordir odam obi” – o’zbek mifologiyasida suvda yashaydigan odamsifat jonzotlar “suv odami”, “odami obi” deb yuritiladi. Markaziy Osiyo turkiy xalqlari mifologiyasida “suv odamlari” yoki suv ichida yashaydi deb tasavvur qilingan “obi odamlar” to’g`risidagi e’tiqodiy qarashlar keng tarqalgan. O’zbek folkloridagi “Qora dev”, “Oymomada ajdaho”, “Kulsa – gul, yig`lasa – dur” ertaklarida, shuningdek, “Yusuf va Ahmad”, “Malika ayyor” dostonlarida “odamobi” (yoki “odami obi”) obrazi tasvirlangan. 1960- yilda folklorshunos olim T.Ashurov suvda yashaydigan afsonaviy odam to’g`risidagi “Odami obi” nomli ertakni yozib olgan.

Afsonalarga ko’ra, “odami obi” yoki “daryo obi” deb ataluvchi bu g`ayrioddiy mavjudotlar hamisha suv ostida yashashar, quruqlikka deyarli chiqishmas emish. Ular hamisha odamlar ko’zidan yashirinib yurishar, faqat dam olish uchungina vaqtı-vaqtı bilan kimsasiz joylarga chiqisharkan. Tasavvurlarga ko’ra, “odami obi”lar qora tanli bo’lib, ularning ko’zlari itnikiga o’xhash, tishlari esa durday oppoq, tim qora sochlari esa qo’zichoqning terisiday jingalak emish. Ular suvda yashaganligi sababli xom baliq va suv o’tlari bilan oziqlanisharmish.

“Boshimga yiqildi bul etti osmon” – mumtoz adabiyotimizda va xalq og`zaki badiiy ijodida “etti falak”, “etti qat ko’k”, “etti osmon” tushunchalari ko’p uchraydi. Qadimiylasavvurlarga ko’ra, osmon etti qavat qilib yaratilgan. “Qissasi Rabg’uziyda” bu xususda shunday naql qilinadi: “Ilk qat ko’k yashil zumuraddin turur, oti Rafiq turur. Farishtalari o’z suratlig’, ulug`larining oti Ismoil otlig’. Ikinchi qat ko’k kumushdin turur, oti Ruq’ a turur. Farishtalari burgut suratlig’, ulug`larining oti Raqboil turur. Uchinchi qat ko’k yoqutdin turur, oti Qaydam turur. Farishtalari uy suratlig’, ulug`larining oti Ko’kboil turur. To’rtinchi qat

urung yinjudin turur, oti Mo'un turur. Farishtalari ot suratlig` turur. Ulug`larining oti Nubyoyil turur. Beshinchi qat ko'k oltundin turur, oti Ratqo, farishtalari hur suratlig`, ulug`larining oti Siftboil turur. Oltinchi qat ko'k sarig` yoqo'tdin turur, oti Zaxo turur. Farishtalari vildon suratlig`. Ulug`larining oti Rag`boil turur. Ettinchi qat ko'k nurdin turur, oti Aribi turur. Farishtalari odamiy suratlig`, ulug`larining oti Nurboil turur”.

Dostonda o'zbek xalqiga xos mehmonnavozlik sifatini yorqin ochib berish maqsadida bu haqda el orasida mashhur bo'lgan «**Xudo bergan mehmon atoyi xudo**”, “**Mehmon degan momongizdan ulug`dir, uni yaxshi izzat qilib, siylab turinglar**” maqol va iboralari qo'llangan.

Yana dostonda “Tulporning toyi bo'lmas, xasisning boyi”, “Ma'qul so'zga qoruv yo'q”, “Bergan xudoga yoqibdi”, “Oltin ko'rsa, farishta yo'ldan chiqadi”, “Xudo beray degan quliga, tashlab qo'yar yo'liga”, “Yaxshi odamning rizqini ming odam eb yotarmish”, “Kengashli to'y buzilmaydi” kabi qator maqollar “Bu ota-bobodan qolgan gap to'g`ri keldi”, “Xalqda shunday bir gap bor” degan jumlalar orqali doston sujetiga bog`lab ketilgan.

Doston tilida qo'llangan xalq maqol va iboralari uni xalq tiliga va diliga yaqinlashtirgan muhim omillardan biridir. Ularni qo'llash vositasida dostonning ta'sirchanligi yanada oshirilgan.

Har bir maqol va ibora qahramonlarning nutqi orqali xarakter-xususiyatini bilib olish sari yo'l ochgan.

Bizning ona xalqimiz o'zi aytmoqchi bo'lgan gapini yanada ta'asirchan va go'zal holatda bo'lishi uchun va fikrini dallilash maqsadida turli xil shunday iboralardan foydalanishgan. Masalan, mehmon kutish marosimi ,mehmonga bo'lgan munosabat qay darajada ekanligini ko'rsatish uchun «Xudo bergan mehmon atoyi xudo”, “Mehmon degan momongizdan ulug`dir, uni yaxshi izzat qilib, siylab turinglar kabi iboralargan foydalanishgan . Hozirgi kunda “momongizdan ulug`dir “ tarzida emas balki, “otangdan ulug” shaklida ishlatiladi. Dostonni o'qiyotgan odam qarg'ishga ham duch kelganligiga guvoh bo'ladi. Bu ikki mullabachcha yoshlik paytlarida bir qushning uyasini tepib o'tib

ketganligi hikoya qilinadi. Yoshi katta ulug’larimiz qush uyasini buzmaslik haqida ogohlantiradilar. O’sha qushning bolalari o’lib qolganligi sababli ular yetti yil dushman yurtida asir bo’lishga hukm qilinadi. Butun asar davomida shuni hech bir tirik jonzodga zarar bermaslik va ularga doimo g’amxo’rlik qilish kerakligini anglab yetish mumkin bo’ladi.

III.3. DOSTONDA QO’LLANGAN ARXAIK VA SHEVAGA XOS SO’ZLAR

Xalq dostonlari ancha oldin, bir-necha asr muqaddam ilgari xalq tilida yaratilgani bois ularda juda ko’p shevaga xos hamda arxaik so’zlar uchrashi tabiiy. Bu jihatdan doston tiliga e’tibor qaratilsa, unda turli narsalarning nomlari, turli shaxs va o’rin-joy otlari qo’llangani kuzatiladi.

Jadval-7

1.	bakovul –	– to’y-hashamlarda taom tayyorlovchi oshpaz, dasturxonchi, kurash, poyga, ko’pkari kabi musboqalarni boshqaruvchi kishi, qadimda hukmdorlarga ovqat tayyorlash ishiga bosh-qosh bo’ladigan va taomni avval o’zi tatib ko’radigan kishi;
2.	bachcha –	Bola
3.	bovurchi –	Oshpaz
4.	bozingar –	ko’zboyloqchi, aldoqchi, afsungar, mohir o’yinchiligi
5.	do’zanda -	igna bilan kashta va kiyim tikadigan mohir tikuvchi
6.	yovchi –	Sovchi
7.	jonsiz –	josus, ayg`oqchi,
8.	mashoyix	(lug`aviy ma’nosи “shayxlar” bo’lib, majoziy ma’noda “o’qimishli, olim kishilar”, “donishmandlar” demakdir)
9.	mahrambachcha	ishonchli xizmatkor, cho’ri,
10.	minishkor –	lochin, burgut kabi qo’lga o’rganilgan qushlar yordamida ov qiluvchi ovchi
11.	mirg`azab –	mahbus va bandilarni jazolaydigan mirshab, kaltaklab tergov qiladigan navkar, zindon nazoratchisi
12.	munajjimi	yulduzlar holati va harakatini kuzatuvchi falakshunos, samo yoritqichlariga qarab fol ochuvchi kishi
13.	mo’ltoni-	(bu so’z aslida Pokistondagi Mo’lton shahrining nomidan kelib chiqqan bo’lib, “lo’li”, “odamlarni aldov yo’li bilan firibgarlik qiluvchi muttaham” ma’nolarini anglatadi
14.	sarboz –	qadimda qo’shin tarkibidagi oddiy piyoda askar, navkar

15.	sarrof –	– pul ayirboshlovchi kishi
16.	tamizchi –	odamlarning tashqi belgilari, rangi-ro’yi va gap-so’ziga qarab kishilarning yaxshi yoki yomon xususiyatlarini aytib bera oladigan kishi,
17.	checha –	Yanga
18.	chorakor –	olinadigan hosilning to’rtdan uch qismini er egasiga berish evaziga yollanib ishlaydigan dehqon
19.	cho’g`olchi –	chaqimchi, odamlar orasida gap etkazib ularning orasini buzuvchi kishi
20.	shabgir –	tun qo’riqchisi, tungi qorovul
21.	shakaman –	nishonni xatosiz va aniq oladigan, bexato otuvchi mergan,
22.	shig`ovul –	podsho saroyida tantanali marosimlarni boshqarib, nazorat qilib turadigan katta amaldor
23.	shotir -	jilovdor, podsho otining jilovida yuruvchi navkar
24.	yasovul –	xonliklar davrida yuqori lavozimdagи kishilarga, amaldorlarga xizmat qiluvchi kichik mansabdor, xonlarning shaxsiy xizmatkori, soqchi yoki posbon
25.	qurandoz –	qur’a tashlab fol ochuvchi kishi
26.	g`ilmon –	jannatda xizmat qiladigan yosh go’zal yigit
27.	g`ulom -	xon saroyida xizmat qiluvchi yigit, xizmatkor
28.	g`ulom -	xon saroyida xizmat qiluvchi yigit, xizmatkor
29.	hudayichi –	biror ish yoki arz bilan kelganlar to’g`risida xonga xabar beruvchi va xonning javobini ularga etkazuvchi amaldor,
30.	sallot –	askar, soldat
31.	to’pchiboshi –	to’p otuvchilar boshlig`i,
32.	elbegi -	– urug` sardori, elat boshlig`I
33.	esh –	yo’ldosh, hamroh
34.	lotparast –	johiliyat davrida istiqomat qilgan arab qabilalarining mahalliy ilohlaridan biri hisoblangan Lotga sig`inuvchi
35.	gum –	daryo yoki soy kabi oqadigan suvning eng chuqur joyi, chuqurlik,
36.	bahorikori –	ko’klamgi ekinlar ekiladigan, ya’ni bahorga mo’ljallangan dala
37.	rabet –	musofirxona, karvonsaroy
38.	solma –	– ariq
39.	tabla –	Otxona
40.	qo’sh –	safar, sayohat yoki jang paytida vaqtinchalik qo’nib, dam olish joyi, vaqtinchalik qarorgoh
41.	ching	qorovullar turadigan tepalik
42.	tuz –	tekis dala, dasht
43.	o’ra –	– ustun, tepalik, baland lik,
44.	balxi -	oq rangli harir ro’molning bir turi;

45.	qarag`ay ro'mol	harir ipak ro'mol
46.	kundal ro'mol –	zar bilan ishlangan matodan tayyorlangan ro'mol
47.	dastor –	– salla, kallapo'sh – do'ppi, kuloh – qalandar va darveshlarning bosh kiyimi, tepe qismi ingichkalashib chiqqan qalpoq
48.	sarjig`a	boshga kiyiladigan qimmatbaho toj.
49.	minsak-	(tilimizda “mursak”, “minsak” fonetik shakllarida qo'llaniladigan bu leksemaning ma'nosи “ayollar kiyadigan engi kalta ustki kiyim, engsiz kamzul” ma'nosini bildirib, aslida arabcha “murassa”” so'zidan olingan va “ayollarning ust kiyimi” ma'nosini anglatgan),
50.	janda –	darvesh va qalandarlarning turli xil mato bo'laklaridan quroq qo'yilgan to'ni, quroqli to'n
51.	dovcha –	– hali pishib etilmagan o'rik, o'rik g'o'rasi
52.	zamcha –	handalak,
53.	zardoli –	o'rik
54.	kadi –	Qovoq
55.	qaroli –	olxo'ri
56.	cho'bir	– oddiy, xashaki ot
57.	to'bichoq –	chopqir, nasldor yo'rg'a ot
58.	do'nan –	– to'rt yoshli ot
59.	g'o'non –	ikki yashar ot kabi turlari va unga aloqador jahaldirik – egarning ikki yonboshi ostiga qo'shiladigan bir juft ot abzali
60.	qo'tos –	otning yoliga yoki dumidan olingan mo'yiga o'tkazilib, bo'yinga taqiladigan qimmatbaho bezak buyumi
61.	pushtan –	egarning ot qornidan o'tkazib bog'lab qo'yiladigan tasmasi,
62.	nahal –	– otlarning oyog`i tagiga qoqiladigan taqa
63.	chirgi –	– otning ustiga yopiladigan maxsus yopinchiq, terlik
64.	maofa –	ot yoki boshqa ulovga o'rnatiladigan hamda odam o'tirishi uchun mo'ljallangan taxtiravon, soyabonli kajava nomi
65.	lo'kcha –	katta gavdali yirik erkak tuya
66.	moya –	– urg`ochi tuya
67.	nor-	bir o'rkachli erkak tuya
68.	Zambir –	qovog`ari
69.	malax –	Chigirtka
70.	pishak –	Mushuk
71.	tana –	urg`ochi mol, buzoq
72.	xachir	ot bilan eshak(hangi)dan urchigan yuk tashuvchi uy hayvoni
73.	chirkay –	mayda chivin

74.	shog`ol –	chiyabo`ri
75.	yumron –	Yumronqoziq
76.	kaljo`ja	pati chiqmagan jo`ja
77.	qashqaldoq –	qamishzor ko`llarda yashaydigan, boshida qashqasi bor yovvoyi ov qushi
78.	kalchurchi –	kalxat, yirtqich qush
79.	olapopish –	popishak, sassiqpopishak, hudhud
80.	g`ajir –	jonivorlarning o`laksasi bilan oziqlanadigan yirtqich qush
81.	zog`u zag`al –	qarg`a-quzg`un (ya`ni “zog” so`zining ma`nosi “qarg`a” bo`lsa, “zag`al” leksemasi aslida “zag`an” tarzida qo`llanilgan bo`lib, lug`aviy ma`nosi “quzg`un”dir.),
82.	tuyg`un –	qirg`iy va qarchig`ay qushning erkagi
83.	churrak –	o`rdakdan kichikroq ov qilinadigan qush tur lari hamda o`rdakning qorabosh – boshida qora patlari ko`p bo`lgan yovvoyi o`rdak
83.	so`na –	yovvoyi o`rdakning erkagi nomlari
84.	baqato`n –	suv betini to`da-to`da bo`lib qoplaydigan suv o`simgili,
85.	karrak –	cho`l va dashtlarda o`sadigan tikanli o`simgilik
86.	miya	(shifobaxsh o`simgilik nomi bo`lib, uning “shirinmiya”, “achchiqmiya” kabi turlari mavjud
87.	buldiriq –	botqoqlik va sizot suvlar to`planadigan joyda o`sadigan suv o`simgilining pishib etilgandan keyin tevarak-atrofga uchib ketadigan gulmevasi
88.	yulg`un miya –	cho`l va dashtlarda, ariq-zovurlar bo`yida o`sadigan ko`p yillik yovvoyi o`simgilik
89.	cho`kir –	yantoq, yulg`un singari poyasi qattiq o`simgiklarning yer ustiga chiqib qolgan qismi
90.	shamshod –	doimo yam-yashil bo`lib tik o`sadigan yog`ochi qattiq janub darax ti
91.	indov –	– guli krest, ya`ni xochga o`xshaydigan bir yillik o`simgilik (uning urug`i xalq tabobatida, undan olingan moy esa qo`nchilik, to`qimachilik va buyoqchilikda ishlatilad
92.	darcha –	– devor yoki darvozaga o`rnatilgan bir yoki qo`sh tabaqali kichkina eshikcha
93.	dolor	-katta va keng dahliz
94.	keraga –,	-o`tovning pastki yog`och qismi,
94.	Kumushkori-	-kumushkori – devorga kumush ishlatib qilingan o`ymakorlik ishi
95.	masha –	-sinchli uyning ikki zavarravi – bolori birlashgan joyni mustahkamlash maqsadida ustunning ustiga qo`yidagan bezakli yog`och
96.	Harra	– arra,
97.	Tabar	-bolta
97.	Chaga	-devorga qoqilgan yog`och mix

98.	cho'psov	– yog`och va taxtalarni sillqlashda ishlatiladigan duradgorlik asbobi nom
99.	shulla –	shavla,
100.	Yupqa	– xamirni yupqa qilib yoyib, ustiga qovurilgan qiyma yoki sabzavot solib pishiriladigan taom,
101.	Kulchatoy	– go'sht qaynatilgan sho'rvaga shapaloq-shapaloq shaklida kesilgan xamirni tashlab pishirilgan taom
102.	uvuz –	sigir tuqqandant keyin birinchi marta sog`ib olingan suti
103.	emtik –	Emish
104.	korson –	– tol, qarag`ay va boshqa daraxtlarning yog`ochidan o'yib ishlangan katta tovoq
105.	yo'rma	– zanjirsimon chop tushirish usulida tikilgan kashta turi
106.	latiba –	-burunga taqiladigan zirakka o'xhash ziynat buyumi, buloqi nomi
107.	olacha –	-ko'pincha paxta ipidan, ba'zan ip va ipakdan to'qiladigan ingichka yo'lli mato, bo'zning bir turi
108.	Haqiq	– qizil rangdagi qimmatbaho tosh
109.	nuqra –	-Kumush
110.	Xoli	– gilam
111.	Tishqoli	– tishni buzilish va har xil kasallikkardan saqlash maqsadida surtiladigan bo'yoq,
112.	Chilvir	– kanop tolasidan mayda qilib eshit to'qilgan ip
113.	Gudari	– qadimda cho'ponlar, navkarlar yoniga taqib yuradigan, ichiga igna, pichoq, ip va boshqa zarur narsalar solib yuriladigan idishning charmdan qilingan bog`ich-ipi nom
114.	gardxo'r –	tegirmondag'i un qoldiqlarini tozalaydigan moslama
115.	davot –	– siyoh solinadigan idish, siyohdon
116.	ko'lbar	– uloqning oshlangan terisidan tikilgan to'rva
117.	mesh –	suv, qimiz va boshqa suyuq narsalar solib qo'yiladigan va tashiladigan teri sanoch – suv, qimiz va boshqa suyuq narsalar solib qo'yiladigan va tashiladigan teri sanoch
118.	Paki	– sartaroshlarning soch-soqol oladigan maxsus ustarsi
119	Patrol	– yuk, ashg`ol-dashg`ol
120.	g`ul	– aybdorning bo'yni va oyoqlariga kiygizib qo'yiladigan temir kishan
121	Bulbulak	– loydan qilingan o'yinchoq
122.	ko'lbar	– uloqning oshlangan terisidan tikilgan to'rva,
123.	Mopa	(bu lug`aviy birlik "mahofa" so'zining fonetik o'zgarishga uchragan shakli bo'lib, "ayollar tushib yuradigan, atrofi o'ralgan kajava" ma'nosini bildiradi),
124	Polopon	– bu o'rinda cholg'u asboblaridan biri – bulamon ma'nosida qo'llanilgan
125.	Sibiziq	– cho'pon-cho'liqlar nayining bir turi,

126.	Saraja	– ikki otni yonma-yon bog`lab, kasalni yotqizish uchun o’rtasiga belanchak singari tutilgan mato
127.	go’y	– jonivorlarning jinsiy faollik davriga kirishi
128.	Bidohat	– odobsizlik, bedoblik
129.	Jumboz	jumboz – g`unchaning erta tongda gulbarglarini ochish holati
130.	Mazlama	– ziyofat, o’tirish, bazm
131.	Sakta	– xatolik, etishmovchilik, kamchilik
132.	momila –	Muomala
133.	Sadr-	– yigit, kelinchak yoki bo’y etgan qiz o’lganda marhumning eng yaqin kishilaridan yoki bir necha kishi davraga chiqib old-orqaga yoki ikki tomonga sollanib, yig`i bilan yo’qlov qo’shiqlarini aytib yig`lash odati
134.	sangsor yoki toshparron	– toshbo’ron
135.	Tiramo	-(kuz fasli, bu so’z xalq taqvimidagi oy nomlaridan biri (“tirmoh” atamasidan olingan. Qadimgi xorazmliklar taqvimiga ko’ra, tirmoh – kuzning birinchi kuni nomidir
136	Hamal	(an’anaviy xalq taqvimiga ko’ra, birinchi oy nomi bo’lib, 21 martdan 21 aprelgacha davom etadi. “Hamal” arabcha so’z bo’lib, “qo’zi” degan ma’noni anglatadi. Qadimda osmondagি o’n ikki yulduz burjidan birinchisiga kiruvchi yoritqichlar to’pi qo’ziga o’xshatib tasvirlanganligi uchun shunday nom berilgan)
137.	Dalv	(o’n ikki yulduz burjidan birining nomi bo’lib, shamsiy taqvimga ko’ra o’n birinchi oy (21 yanvar – 21 fevral) ham shu nom bilan atalgan)
138.	Abjad	– arab alifbosidagi harflarning son qiymatiga muvofiq muayyan so’z yoki iboradan ma’lum son, sana yoki tarixni aniqlash usuli
139.	javzo -	javzo (o’n ikki burjdan biri, ya’ni Saraton va Savr burjlarining o’rtasida joylashgnan yulduzlar to’pining nomi bo’lib, shamsiy yil hisobida uchinchi oy shu nom bilan ata ladi),
140.	Mizon	– o’n ikki yulduz burjlaridan biri, Savr va Saraton burjlari o’rtasida joylashgan yulduzlar to’pi
141.	Jahr	(baland ovoz chiqarib qilinadigan zikr, shuning uchun ovoz chiqarib oshkora zikr qilishga asoslangan tariqat yo’nalishlaridan biri “jahriya” deyilgan),
142.	Zakot	– qadimda xonliklar davrida chorva va mol-mulkning qirqdan bir ulushi miqdorida har yili xazina foydasiga olingan soliq
143.	tayammum	tayammum – suv bo’limganda tuproq, qum, paxta, toza mato kabilardan foydalanib qilinadigan shartli tahorat

144.	Pasl	– fursat, saraton (xalq taqvimiga ko’ra, yoz to’qsonining birinchi oyi nomi bo’lib, 21 iyundan 21 iyulgacha davom etadi. Ko’kdagi o’n ikki burjning to’rtinchisi “qisqichbaqa” shaklida tasavvur qilingani uchun “saraton” deb atalgan)
145.	abgor-abgashta	ahvoli xarob, majruh
146.	Andarmon	– band, mashg`ul
147.	badpoy tuya	– tez yuradigan, shamolday tez eladigan tuya
148.	Bodgil	(lug`aviy ma’nosida “shamol tortar tuynuk” tarzida izohlanadigan bu so’z dostonda “havolanib ketgan, manman, gerdaygan” ma’nosida qo’llanilgan)
149.	Bodpoy	– shamolday tez yuguruvchi, yuguruk, yo’rg`a,
150.	Ganchkori	– ganch bilan suvoq qilib ishlov berilgan, ganchlangan
151.	gardankash	– qaysar, o’jar, gapga kirmaydigan
152.	Govsavat	– ulkan, katta, bahaybat savat
153.	go’sxo’r	– tentak, anqov, laqma, go’l odam
154.	dongozador	– ovozador
155.	Zuljalol	– azamat va eng buyuk, buyuklik egasi
156.	Loppi	– maqtanchoq, lof-mubolag`a bilan gapiruvchi, kerilib yuradigan kishi
157.	Musaxxar	– bo’ysundirilgan, qaram qilingan
158.	Mustar	– majbur bo’lgan, nochor, noiloj
159.	Muhannas	– xunasa; ko’chma ma’noda: nomard
160.	nazarkarda	– xudoning, pirlarning nazariga tushgan, xudoning panohidagi, ko’p iltifotu mehribonchiliklarga sazovor bo’lgan
161.	Naymit	– ayyor, qitmir
162.	Nimkola	– yarimjon, kasalmand
163.	Noshar	– noshar’iy, shariatga to’g`ri kelmaydigan, shariatga xilof
165.	Sabil	– egasiz, qarovsiz qolgan (bundan tashqari, “qurib ketgur” ma’nosini ham bildiradi
166.	to’loba dillari	– dardchil, g`amgin ko’ngil
167.	o’r	– o’jar, o’z bilganidan qolmaydigan odam
168.	o’tirik	– yolg`on, behuda
169.	Qalqi	– to’siq, g`ov
170.	Quyanjiriq	– quyonga o’xhash, quyon kabi labida yirtig`i bor odam
171.	g`o’chchoq	– mard, botir, jasur yigit
172.	Hakari	– (telpakni hakari qip kiysa
173.	Xonasalot	– uying kuygur, badbaxt
174.	Xumsa	– yaramas, ablah
175.	cho’ntoq	– kalta, pakana, dumsiz, dumi tumtoq
176.	Ntifoq	– ittifoq, ahil

177.	Kazzob	– yolg`onchi,aldoqchi, soxtakor odam
178.	kumushkori	– devorga kumush ishlatib qilingan o`ymakorlik ishi
179.	Mardud	– rad etilgan, haydalgan, quvilgan, noma'qul
180.	Saroyoq	– sayoq yuruvchi, bebosh
181.	Tamlik	– qarashli, oid, tegishli, tanlik kabi so'zlar sifat turkumiga mansubdir.
182.	Botmon	-(o'tmishda mamlakatimizning turli hududlarida ikki puddan o'n bir pudgacha bo'lган salmoqqa ega bo'lган og`irlilik o'lchovi sifatida qo'llanilgan bu miqdor aslida 898,5 grammga teng og`irlilik o'lchovi bo'lган
183.	Dahsar	-dahsar (xalqimiz tomonidan o'tmishda qo'llanilgan og`irlilik o'lchovi birligi bo'lib, odatda botmonning qirqdan bir qismi miqdorini ifodalagan)
184.	Dubarak	-dubarak – ikkinchi marta, ikkilamchi
185.	Lak	(aslida qadimgi hind tilidan o'zlashgan bu so'zning lug`aviy ma'nosи “yuz ming” bo'lib, lashkarlarning sonini ifodalovchi miqdor belgisi sifatida ishlatilgan)
186.	Tosh	– bir chaqirim (ya'ni taxminan 6 km.ga yaqin uzunlik o'lchov birligi; dostonda qo'llanilgan “yarim tosh” birikmasi 3 km.ga teng masofa demakdir)
187.	o'n pul	-(o'tmishda ba'zi joylarda yarim tiyinga, boshqa erlarda esa bir tiyinga teng bo'lган pul o'lchov birligi
188.	Ko'm-ko'k	-ko'kmak
189.	Billa	– birga
190.	bir pasl	– bir fursat
191.	Gana	– ba'zi, goho, ba'zan
192.	Gartak	– oz, jinday, kichkina
193.	jangitda	– hozir, hozirgina, boyta
194.	Kay	– keyin
195.	namozdigar	– quyosh botishidan avvalgi payt
196.	so'g`in	– so'ngra
197.	tuyisqundan	tuyisqundan – bexosdan, qo'qqisdan, to'satdan
198.	cho'q	– ko'p
198.	innankay	– ana shundan keyin, undan so'ng
199.	ishtaraflab	– tiqilinch qilib, zudlik bilan
200.	Haylo	– ana, mana
201.	Buytib	– bunday qilib
202.	manikay	– mana, anna
203.	Uman	– u bilan
204.	shuytarmi	– shunday qilarmi
205.	sho'man	– shu bilan, o'sha bilan
206.	qanikay –	-qaniydi, qani endi,
207.	, nem ishlar –	-nima ishlar

Masalan, dostonda **bakovul** – to'y-hashamlarda taom tayyorlovchi oshpaz, dasturxonchi, kurash, poyga, ko'pkari kabi musboqalarni boshqaruvchi kishi, qadimda hukmdorlarga ovqat tayyorlash ishiga bosh-qosh bo'ladigan va taomni avval o'zi tatib ko'radigan kishi; **bachcha** – bola, **bovurchi** – oshpaz, **bozingar** – ko'zboyloqchi, aldoqchi, afsungar, mohir o'yinchi, **do'zanda** – igna bilan kashta va kiyim tikadigan mohir tikuvchi, **yovchi** –sovchi, **jonsiz** – josus, ayg'oqchi, **mashoyix** (lug`aviy ma'nosi "shayxlar" bo'lib, majoziy ma'noda "o'qimishli, olim kishilar", "donishmandlar" demakdir), **mahrambachcha** – ishonchli xizmatkor, cho'ri, **minishkor** – lochin, burgut kabi qo'lga o'rganilgan qushlar yordamida ov qiluvchi ovchi, **mirg`azab** – mahbus va bandilarni jazolaydigan mirshab, kaltaklab tergov qiladigan navkar, zindon nazoratchisi, **munajjim** – yulduzlar holati va harakatini kuzatuvchi falakshunos, samo yoritqichlariga qarab fol ochuvchi kishi, **mo'ltoni** (bu so'z aslida Pokistondagi Mo'lton shahrining nomidan kelib chiqqan bo'lib, "lo'li", "odamlarni aldov yo'li bilan firibgarlik qiluvchi muttaham" ma'nolarini anglatadi), **sarboz** – qadimda qo'shin tarkibidagi oddiy piyoda askar, navkar, **sarrof** – pul ayrboshlovchi kishi, **tamizchi** – odamlarning tashqi belgilari, rangi-ro'yi va gap-so'ziga qarab kishilarning yaxshi yoki yomon xususiyatlarini aytib bera oladigan kishi, **checha** – yanga, **chorakor** – olinadigan hosilning to'rtdan uch qismini er egasiga berish evaziga yollanib ishlaydigan dehqon, **cho'g`olchi** – chaqimchi, odamlar orasida gap etkazib ularning orasini buzuvchi kishi, **shabgir** – tun qo'riqchisi, tungi qorovul, **shakaman** – nishonni xatosiz va aniq oladigan, bexato otuvchi mergan, **shig`ovul** – podsho saroyida tantanali marosimlarni boshqarib, nazarat qilib turadigan katta amaldor, **shotir** – jilovdor, podsho otining jilovida yuruvchi navkar, **yasovul** – xonliklar davrida yuqori lavozimdagи kishilarga, amaldorlarga xizmat qiluvchi kichik mansabdor, xonlarning shaxsiy xizmatkor, soqchi yoki posbon, **qurandoz** – qur'a tashlab fol ochuvchi kishi, **g`ilmon** – jannatda xizmat qiladigan yosh go'zal yigit, **g`ulom** – xon saroyida xizmat qiluvchi yigit, xizmatkor, **hudaychi** – biror ish yoki arz bilan kelganlar to'g'risida xonga xabar beruvchi va xonning javobini ularga etkazuvchi

amaldor, **sallot** – askar, soldat, **to'pchiboshi** – to'p otuvchilar boshlig'i, **elbegi** – urug` sardori, elat boshlig'i, **esh** – yo'ldosh, hamroh, **lotparast** – johiliyat davrida istiqomat qilgan arab qabilalarining mahalliy ilohlaridan biri hisoblangan Lotga sig`inuvchi kabi shaxs otlari uchraydi.

Dostonda **gum** – daryo yoki soy kabi oqadigan suvning eng chuqur joyi, chuqurlik, **bahorikori** – ko'klamgi ekinlar ekiladigan, ya'ni bahorga mo'ljallangan dala, **rabet** – musofirxona, karvonsaroy, **solma** – ariq, **tabla** – otxona, **qo'sh** – safar, sayohat yoki jang paytida vaqtinchalik qo'nib, dam olish joyi, vaqtinchalik qarorgoh, **ching** – qorovullar turadigan tepalik, **tuz** – tekis dala, dasht, **o'ra** – ustun, tepalik, baland lik, santalat – saltanat singari joy otlari keltirilgan.

Kiyim-kechak nomlari sifatida dostonda quyidagilar uchraydi:

1. Bosh kiyimlari:

a) ayollarning ro'mollari turi: **balxi** – oq rangli harir ro'molning bir turi; **qarag`ay ro'mol** – harir ipak ro'mol, **kundal ro'mol** – zar bilan ishlangan matodan tayyorlangan ro'mol;

b) erkaklarning bosh kiyimlari: **dastor** – salla, kallapo'sh – do'ppi, kuloh – qalandar va darveshlarning bosh kiyimi, tepa qismi ingichkalashib chiqqan qalpoq, **sarjig`a** – boshga kiyiladigan qimmatbaho toj.

2. Ust kiyimlari sifatida **minsak** (tilimizda “mursak”, “minsak” fonetik shakllarida qo'llaniladigan bu leksemaning ma'nosи “ayollar kiyadigan engi kalta ustki kiyim, engsiz kamzul” ma'nosini bildirib, aslida arabcha “murassa” so'zidan olingan va “ayollarning ust kiyimi” ma'nosini anglatgan), **janda** – darvesh va qalandarlarning turli xil mato bo'laklaridan quroq qo'yilgan to'ni, quroqli to'n nomlari tilga olingan.

Ma'lum bir shodiyona, tantanali kun yoki to'y marosimi munosabati bilan sovg`a qilinadigan bosh-oyoq kiyim, **sarupo** so'zi dostonda “**sarpoy**” ko'rinishida keltirilgan.

Dostonda **dovcha** – hali pishib etilmagan o'rik, o'rik g'o'rasi, **zamcha** – handalak, **zardoli** – o'rik, **kadi** – qovoq, **qaroli** – olxo'ri nomlari ham shevada keltirilgan.

Xalq dostonlarida ot va tuya turlarining nomi, ularning anjomlari nomi alohida keltiriladi. Xuddi shuningdek, «Yusuf va Ahmad» dostonida ham otning **cho’bir** – oddiy, xashaki ot, **to’bichoq** – chopqir, nasldor yo’rg`a ot, **do’nan** – to’rt yoshli ot, **g`o’non** – ikki yashar ot kabi turlari va unga aloqador jahaldirik – egarning ikki yonboshi ostiga qo’shiladigan bir juft ot abzali, **qo’tos** – otning yoliga yoki dumidan olingan mo’yiga o’tkazilib, bo’yinga taqiladigan qimmatbaho bezak buyumi, **pushtan** – egarning ot qornidan o’tkazib bog’lab qo’yiladigan tasmasi, **nahal** – otlarning oyog`i tagiga qoqiladigan taqa, **chirgi** – otning ustiga yopiladigan maxsus yopinchiq, terlik, **maofa** – ot yoki boshqa ulovga o’rnatiladigan hamda odam o’tirishi uchun mo’ljallangan taxtiravon, soyabonli kajava nomlari tilga olingan.

Tuyaning **lo’kcha** – katta gavdali yirik erkak tuya, **moya** – urg`ochi tuya, **nor** – bir o’rkachli erkak tuya kabi turlari sanab o’tilgan.

Zambir – qovog`ari, **malax** – chigirtka, **pishak** – mushuk, **tana** – urg`ochi mol, buzoq, **xachir** – ot bilan eshak(hangi)dan urchigan yuk tashuvchi uy hayvoni, **chirkay** – mayda chivin, **shog`ol** – chiyabo’ri, **yumron** – yumronqoziq, **kaljo’ja** – pati chiqmagan jo’ja ma’nolarida qo’llangan.

Qushlarning **qashqaldoq** – qamishzor ko’llarda yashaydigan, boshida qashqasi bor yovvoyi ov qushi, **kalchurchi** – kalxat, yirtqich qush, **olapopish** – popishak, sassiqpopishak, hudhud, **g`ajir** – jonivorlarning o’laksasi bilan oziqlanadigan yirtqich qush, **zog`u zag`al** – qarg`a-quzg`un (ya’ni “zog” so’zining ma’nosи “qarg`a” bo’lsa, “zag`al” leksemasi aslida “zag`an” tarzida qo’llanilgan bo’lib, lug`aviy ma’nosи “quzg`un”dir.), **tuyg`un** – qirg`iy va qarchig`ay qushning erkagi, **churrik** – o’rdakdan kichikroq ov qilinadigan qush tur lari hamda o’rdakning qorabosh – boshida qora patlari ko’p bo’lgan yovvoyi o’rdak, **so’na** – yovvoyi o’rdakning erkagi nomlari tilga olingan.

O’simlik va darax nomlaridan **baqato’n** – suv betini to’da-to’da bo’lib qoplaydigan suv o’simligi, **karrak** – cho’l va dashtlarda o’sadigan tikanli o’simlik, **miya** (shifobaxsh o’simlik nomi bo’lib, uning “shirinmiya”, “achchiqmiya” kabi turlari mavjud), **buldiriq** – botqoqlik va sizot suvlari to’planadigan joyda o’sadigan

suvgan o'simligining pishib etilgandan keyin tevarak-atrofga uchib ketadigan gulmevasi, **yulg`un miya** – cho'l va dashtlarda, ariq-zovurlar bo'yida o'sadigan ko'p yillik yovvoyi o'simlik, **cho'kir** – yantoq, yulg`un singari poyasi qattiq o'simliklarning yer ustiga chiqib qolgan qismi, **shamshod** – doimo yam-yashil bo'lib tik o'sadigan yog'ochi qattiq janub darax ti, **indov** – guli krest, ya'ni xochga o'xshaydigan bir yillik o'simlik (uning urug'i xalq tabobatida, undan olingan moy esa qo'nchilik, to'qimachilik va buyoqchilikda ishlataladi) nomlari keltirilgan.

Milliy uysozlik, o'tovsozlik, duradgorlik va unga xos asboblar nomi ham dostonda uchraydi. Bunga **darcha** – devor yoki darvozaga o'rnatilgan bir yoki qo'sh tabaqali kichkina eshikcha, **dolor** – katta va keng dahliz, **keraga** – o'tovning pastki yog`och qismi, **kumushkori** – devorga kumush ishlatib qilingan o'ymakorlik ishi, **masha** – sinchli uyning ikki zavarravi – bolori birlashgan joyni mustahkamlash maqsadida ustunning ustiga qo'yidagan bezakli yog`och, **arra** – arra, **tabar** – bolta, **chaga** – devorga qoqligan yog`och mix, **cho'psov** – yog`och va taxtalarni silliqlashda ishlataladigan duradgorlik asbobi nomlarini misol qilib ko'rsatish mumkin.

Dostonda milliy taomlar va eguliklar, milliy idishlar nomidan **shulla** – shavla, **yupqa** – xamirni yupqa qilib yoyib, ustiga qovurilgan qiyma yoki sabzavot solib pishiriladigan taom, **kulchatoy** – go'sht qaynatilgan sho'rvaga shapaloq-shapaloq shaklida kesilgan xamirni tashlab pishirilgan taom, **uvuz** – sigir tuqqandant keyin birinchi marta sog`ib olingan suti, **emtik** – emish, **korson** – tol, qarag`ay va boshqa daraxtlarning yog`ochidan o'yib ishlangan katta tovoq so'zları keltirilgan.

Asar tilida **yo'rma** – zanjirsimon chop tushirish usulida tikilgan kashta turi, **latiba** – burunga taqiladigan zirakka o'xhash ziynat buyumi, buloqi nomi, **olacha** – ko'pincha paxta ipidan, ba'zan ip va ipakdan to'qiladigan ingichka yo'lli mato, bo'zning bir turi, **haqiq** – qizil rangdagi qimmatbaho tosh, **nuqra** – kumush, **xoli** – gilam, **tishqoli** – tishni buzilish va har xil kasalliklardan saqlash maqsadida surtiladigan bo'yoq, **chilvir** – kanop tolasidan mayda qilib eshit to'qilgan ip, **gudari** – qadimda cho'ponlar, navkarlar yoniga taqib yuradigan, ichiga igna,

pichoq, ip va boshqa zarur narsalar solib yuriladigan idishning charmdan qilingan bog`ich-ipi nomlari ham uchraydi.

Bundan tashqari yana dostonda **gardxo'r** – tegirmondag'i un qoldiqlarini tozalaydigan moslama, **davot** – siyoh solinadigan idish, siyohdon, **ko'lbar** – uloqning oshlangan terisidan tikilgan to'rva, **mesh** – suv, qimiz va boshqa suyuq narsalar solib qo'yiladigan va tashiladigan teri sanoch, **paki** – sartaroshlarning soch-soqol oladigan maxsus ustarsi, **partol** – yuk, ashg`ol-dashg`ol, **g`ul** – aybdorning bo'yni va oyoqlariga kiygizib qo'yiladigan temir kishan, **bulbulak** – loydan qilingan o'yinchoq, **ko'lbar** – uloqning oshlangan terisidan tikilgan to'rva, **mopa** (bu lug'aviy birlik "mahofa" so'zining fonetik o'zgarishga uchragan shakli bo'lib, "ayollar tushib yuradigan, atrofi o'ralgan kajava" ma'nosini bildiradi), **polopon** – bu o'rinda cholg'u asboblaridan biri – bulamon ma'nosida qo'llanilgan, **sibiziq** – cho'pon-cho'liqlar nayining bir turi, **saraja** – ikki otni yonma-yon bog`lab, kasalni yotqizish uchun o'rtasiga belanchak singari tutilgan mato singari maishiy turmush bilan bog`liq turli predmetlar nomi tilga olib o'tilgan.

Dostonda ko'pincha mavhum otlar asl talaffuzidan chekinib talaffuz qilingani kuzatiladi. Masalan, vahima – **vayim**, shubha, guman – **gudar**, alam, qayg`u, dard – **cher**; yordam, ko'mak – **yori**, ko'ngil, dil – **ko'kay**, nasiba – **nasva** kabi.

Shuningdek, dostonda **go'y** – jonivorlarning jinsiy faollik davriga kirishi, **bidohat** – odobsizlik, bedoblik, **jumboz** – g`unchaning erta tongda gul barglarini ochish holati, **mazlama** – ziyofat, o'tirish, bazm, **sakta** – xatolik, etishmovchilik, kamchilik, **hurkunchlik** – qo'rqinchlik, vahimagarchilik, **momila** – muomala, **sadr** – yigit, kelinchak yoki bo'y etgan qiz o'lganda marhumning eng yaqin kishilaridan yoki bir necha kishi davraga chiqib old-orqaga yoki ikki tomonga sollanib, yig`i bilan yo'qlov qo'shiqlarini aytib yig`lash odati, **sangsov** yoki **toshparron** – toshbo'ron, **tiramo** (kuz fasli, bu so'z xalq taqvimidagi oy nomlaridan biri ("tirmoh" atamasidan olingan. Qadimgi xorazmliklar taqvimiiga ko'ra, **tirmoh** – kuzning birinchi kuni nomidir), **hamal** (an'anaviy xalq taqvimiiga ko'ra, birinchi oy nomi bo'lib, 21 martdan 21 aprelgacha davom etadi. "Hamal"

arabcha so’z bo’lib, “qo’zi” degan ma’noni anglatadi. Qadimda osmondagি o’n ikki yulduz burjidan birinchisiga kiruvchi yoritqichlar to’pi qo’ziga o’xshatib tasvirlanganligi uchun shunday nom berilgan), **dalv** (o’n ikki yulduz burjidan birining nomi bo’lib, shamsiy taqvimga ko’ra o’n birinchi oy (21 yanvar – 21 fevral) ham shu nom bilan atalgan), **abjad** – arab alifbosidagi harflarning son qiymatiga muvofiq muayyan so’z yoki iboradan ma’lum son, sana yoki tarixni aniqlash usuli, **javzo** (o’n ikki burjidan biri, ya’ni Saraton va Savr burjlarining o’rtasida joylashgnan yulduzlar to’pining nomi bo’lib, shamsiy yil hisobida uchinchi oy shu nom bilan ata ladi), **mizon** – o’n ikki yulduz burjlaridan biri, Savr va Saraton burjlari o’rtasida joylashgan yulduzlar to’pi, **jahr** (baland ovoz chiqarib qilinadigan zikr, shuning uchun ovoz chiqarib oshkora zikr qilishga asoslangan tariqat yo’nalishlaridan biri “jahriya” deyilgan), **zakot** – qadimda xonliklar davrida chorva va mol-mulkning qirqdan bir ulushi miqdorida har yili xazina foydasiga olingan soliq, **tayammum** – suv bo’lmaganda tuproq, qum, paxta, toza mato kabilardan foydalanib qilinadigan shartli tahorat, **panti** – aldov, pand emoq, **pasl** – fursat, saraton (xalq taqvimiga ko’ra, yoz to’qsonining birinchi oyi nomi bo’lib, 21 iyundan 21 iyulgacha davom etadi. Ko’kdagi o’n ikki burjnинг to’rtinchisi “qisqichbaqa” shaklida tasavvur qilingani uchun “saraton” deb atalgan) kabi faoliyat-jarayon otlari keltirilgan.

“Yusuf va Ahmad” dostonidagi arxaik va shevaga xos so’zlarni turkumlarga bo’lib ham o’rganish mumkin. Jumladan, unda qo’llangan **abgor-abgashta** – ahvoli xarob, majruh, **andarmon** – band, mashg`ul, **badpoy tuya** – tez yuradigan, shamolday tez eladigan tuya, **bodgir** (lug`aviy ma’nosи “shamol tortar tuynuk” tarzida izohlanadigan bu so’z dostonda “havolanib ketgan, manman, gerdaygan” ma’nosida qo’llanilgan), **badpoy** – shamolday tez yuguruvchi, yuguruk, yo’rg`a, **ganchkori** – ganch bilan suvoq qilib ishlov berilgan, ganchlangan, **gardankash** – qaysar, o’jar, gapga kirmaydigan, **govsavat** – ulkan, katta, bahaybat savat, **go’sxo’r** – tentak, anqov, laqma, go’l odam, **dongozador** – ovozador, **zuljalol** – azamat va eng buyuk, buyuklik egasi, **loppi** – maqtanchoq, lof-mubolag`a bilan gapiruvchi, kerilib yuradigan kishi, **musaxxar** – bo’ysundirilgan, qaram qilingan,

mustar – majbur bo’lgan, nochor, noiloj, **muhannas** – xunasa; ko’chma ma’noda: nomard, **nazarkarda** – xudoning, pirlarning nazariga tushgan, xudoning panohidagi, ko’p iltifotu mehribonchiliklarga sazovor bo’lgan, **naymit** – ayyor, qitmir, **nimkola** – yarimjon, kasalmand, **noshar** – noshar’iy, shariatga to’g’ri kelmaydigan, shariatga xilof, **sabil** – egasiz, qarovsiz qolgan (bundan tashqari, “qurib ketgur” ma’nosini ham bildiradi), **to’loba dillari** – dardchil, g`amgin ko’ngil, **o’r** – o’jar, o’z bilganidan qolmaydigan odam, **o’tirik** – yolg`on, behuda, **qalqi** – to’siq, g`ov, **quyanjiriq** – quyonga o’xshash, quyon kabi labida yirtig`i bor odam, **g`o’chchoq** – mard, botir, jasur yigit, **hakari** – (telpakni hakari qip kiysa), **xonasalot** – uying kuygur, badbaxt, **xumsa** – yaramas, ablah, **cho’ntoq** – kalta, pakana, dumsiz, dumি tumtoq, **intifoq** – ittifoq, ahil, **kazzob** – yolg`onchi, aldoqchi, soxtakor odam, **kumushkori** – devorga kumush ishlatib qilingan o’ymakorlik ishi, **mardud** – rad etilgan, haydalgan, quvilgan, noma’qul, **saroyoq** – sayoq yuruvchi, bebosh, **tamlik** – qarashli, oid, tegishli, tanlik kabi so’zlar sifat turkumiga mansubdir.

Sifatning orttirma darajasini hosil qilish uchun dostonda bejoy – juda, o’ta, juda ham, **benahat** – benihoya kabi leksik birliklardan foydalanilgan. Ko’m-ko’k so’zi **ko’kmak** tarzida ishlatilgan.

Dostonda **billa** – birga, **bir pasl** – bir fursat, **gana** – ba’zi, goho, ba’zan, **gartak** – oz, jinday, kichkina, **jangitda** – hozir, hozirgina, boya, **kay** – keyin, **namozdigar** – quyosh botishidan avvalgi payt, **so’g’in** – so’ngra, **tuyisqundai** – bexosdan, qo’qqisdan, to’satdan, **cho’q** – ko’p, **innankay** – ana shundan keyin, undan so’ng, **ishtaraflab** – tiqilinch qilib, zudlik bilan singari ravishlar keltirilgan.

Dostonda hisob so’zlardan ham ko’p foydalanilgan. Jumladan, unda **botmon** (o’tmishda mamlakatimizning turli hududlarida ikki puddan o’n bir pudgacha bo’lgan salmoqqa ega bo’lgan og’irlik o’lchovi sifatida qo’llanilgan bu miqdor aslida 898,5 grammga teng og’irlik o’lchovi bo’lgan), **dahsar** (xalqimiz tomonidan o’tmishda qo’llanilgan og’irlik o’lchovi birligi bo’lib, odatda botmonning qirqdan bir qismi miqdorini ifodalagan), **dubarak** – ikkinchi marta, ikkilamchi, **lak** (aslida qadimgi hind tilidan o’zlashgan bu so’zning lug’aviy ma’nosи “yuz ming” bo’lib,

lashkarlarning sonini ifodalovchi miqdor belgisi sifatida ishlatalgan), **tosh** – bir chaqirim (ya’ni taxminan 6 km.ga yaqin uzunlik o’lchov birligi; dostonda qo’llanilgan “yarim tosh” birikmasi 3 km.ga teng masofa demakdir), **o’n pul** (o’tmishda ba’zi joylarda yarim tiyinga, boshqa erlarda esa bir tiyinga teng bo’lgan pul o’lchov birligi hamda shu qiymatdagi mayda pul birligi “bir pul” deb atalgan. Shunga ko’ra, dostonda tilga olingan “o’n pul” tushunchasi o’n tiyinga teng pul birligi miqdorini anglatadi) singari hisob so’zlar uchraydi.

Dostonda **haylo** – ana, mana, **buytib** – bunday qilib, **manikay** – mana, anna, **uman** – u bilan, **shuytarmi** – shunday qilarmi, **sho’man** – shu bilan, o’sha bilan, **qanikay** – qaniydi, qani endi, **nem ishlar** – nima ishlar kabi olmoshlar sheva ko’rinishida qo’llangan.

Magistrlik dissertatsiya ishimizning uchinchi bobida ko‘rib o’tilgan masalalar tahlili yuzasidan quyidagicha xulosalarga keldik:

1. Ilmi bade’da sanoyi ya’ni san’atlar ko’pligi nutqning qaysi jihatiga bezak berishi jihatidan lafziy, ma’noviy hamda lafzi-yu ma’naviy san’atlarga bo’linadi. Nutqning ma’noviy tomoni bilan bog’liq bo’lib, uning ma’noviy jihatini bezashga xizmat qiluvchi she’riy san’atlar ma’naviy she’riy san’atlar deb yuritiladi. Adabiyotlarda talmeh, mubolag’a, tamsil, istiora kabi qator she’riy san’atlar ma’naviy san’atlar sirasiga kiradi. She’rning ko’proq shakily tomoniga e’tibor qaratgan holda uning uslubiga bezak beruvchi san’atlar lafziy san’atlar deyiladi. Tarse, tajnis, saj, zulqofiyatayn kabilar lafziy san’atlar sirasiga kiradi. Lafzi-yu manaviy san’atlar ham shaklga ham ma’noga e’tibor qaratuvchi san’at turlari jamlanmasi hisoblanadi.

Doston tili juda boy va shirali. Asar qahramonlarining harakatlari, ruhiy holati, jang-u jadallar tasiri va oddiy suhbatlar tasvirida she’riy san’atlardan unumli foydalilanilgan. She’riy san’atlar vositasida tasvirlanayotgan holat kitobxonning ko’z oldida yaqqol namoyon bo’ladi. Ta’sirchanligini oshiradi va asar qahramonlari xarakterlarini, xatti –harakatlarini yoritishda asosiy o’rinni egallaydi.

2.Har bir maqol va ibora qahramonlarning nutqi orqali xarakter-xususiyatini bilib olish sari yo'l ochgan. Har bir ibora, maqol qahramonlar nutqiga mahorat bilan singdirib yuborilgan. Qo'llangan ushbu vositalar orqali qahramon ruhiyati va xarakteri ochib berilgan. Yusuf va Ahmadning tog'asi bilan bolgan janjal haqida odamlar gapirib malomat qilmasligi uchun, yomon ayg'ir enasiga chopadi degan xalqona so'zni aytib, go'yoki barcha aybni o'z bo'ynilariga olishadi.

Bizning ona xalqimiz o'zi aytmoqchi bo'lgan gapini yanada ta'asirchan va go'zal holatda bo'lishi uchun va fikrini dallilash maqsadida turli xil shunday iboralardan foydalanishgan. Masalan, mehmon kutish marosimi ,mehmonga bo'lgan munosabat qay darajada ekanligini ko'rsatish uchun «Xudo bergen mehmon atoyi xudo”, “Mehmon degan momongizdan ulug'dir, uni yaxshi izzat qilib, siylab turinglar kabi iboralargan foydalanishgan . Hozirgi kunda “momongizdan ulug'dir “ tarzida emas balki, “otangdan ulug” shaklida ishlatiladi. Dostonni o'qiyotgan odam qarg'ishga ham duch kelganligiga guvoh bo'ladi. Bu ikki mullabachcha yoshlik paytlarida bir qushning uyasini tepib o'tib ketganligi hikoya qilinadi. Yoshi katta ulug'larimiz qush uyasini buzmaslik haqida ogohlantiradilar. O'sha qushning bolalari o'lib qolganligi sababli ular yetti yil dushman yurtida asir bo'lishga hukm qilinadi. Butun asar davomida shuni hech bir tirik jonzodga zarar bermaslik va ularga doimo g'amxo'rlik qilish kerakligini anglab yetish mumkin bo'ladi.

3.Doston to'laliligicha xalqona tilda yaratilganligi uchun unda arxaik so'zlar ishtiroki sezilari darajada ko'pligiliga guvoh bo'lamiz. Arxaik yoki arxaizmlar eskirgan ,yoki iste'moldan chiqqan so'zlardir. Arxaizmlardan tarixiy mavzudagi asarlarda davr koloritini berish va qahramonlar nutqini individuallashtirish uchun ishlatiladi.

XULOSA

Xalqimiz o'zining xilma-xil janrlardan iborat xalq og`zaki poetik ijodiyoti, o'ziga xos etnomadaniy qadriyatlari va boy adabiy merosi bilan dunyo xalqlari badiiy tafakkuri rivojiga ulkan hissa qo'shib kelmoqda. Ajdodlarimizning o'ziga xos badiiy-estetik qarashlari, yaratuvchilik va bunyodkorlik g`oyalarini o'zida mujassamlashtirgan nodir iqtidori va beqiyos ijodiy salohiyati tufayli yuzaga kelgan folklor an'analarining asrlar davomida izchil rivojlanib kelishi natijasida bizning yurtimizda nafaqat o'zbek, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasi aholisining ma'naviy-madaniy taraqqiyotida muhim rol o'ynagan nomoddiy madaniy meros durdonalari yaratilgan. Tarixan qadimiy asoslarga ega yaxlit badiiy tizim sifatida shakllangan o'zbek xalq dostonchiligi va epik ijrochilik san'ati an'analarini ham ana shu milliy qadriyatizimining muhim bir qismi hisoblanadi. O'zbek xalq dostonlari o'zining tarixiy-genetik asoslari, yaratilish jarayoni, ijtimoiy voqelikni aks ettirish tarzi, janr xususiyatlari, obrazlar tarkibi va talqiniga ko'ra ko'p qatlamlı epik hodisa bo'lib, tarixiy va afsonaviy jang-u jadallar, ona yurtni himoya qilish, vatan daxlsizligi va ozodligi uchun kurash g`oyalarini aks ettirgan asarlar ana shu epik silsilada alohida o'rinn tutadi.

“Yusuf bilan Ahmad” – yuksak salohiyatli so'z ustalari – baxshilar tomonidan yaratilib, badiiy sayqal berib kelingan nomoddiy madaniy merosning betakror namunalaridan biridir. U o'zbek xalq dostonlarining o'ziga xos badiiy olami haqida muayyan tasavvur uyg`ota oladi.

1.“Yusuf va Ahmad” – jangnoma doston. Chunki unda jang manzaralari asosiy o'rinn tutgan. Bosh qahramonlarning jangdagi jasoratlari tasvirlangan. Unda turli-tuman xarakterdagи urush epizodlari ko'rsatilgan.

Unda urush umumiy bir fon bo'lib, aslida bosh qahramonlarning dushmaniga qarshi kurashda mardlik va jasorat ko'rsatishi, ona yer daxlsizligi uchun kurashi, el-yurtlar birligi, vatanparvarlik va do'stlik kabi olijanob g`oyalar kuylanishi e'tiborda tutilgan.

Doston vatanparvarlik tuyg`ulari, ona-yurt sog`inchi bilan yo'g`rilgan. Unda urush oqibatlarini, keraksiz jang-u jadallarni tasvirlash orqali xalqning bosqinchilik

urushlariga qarshi keskin noroziligi baralla yangraydi. Bu jangnoma dostonning asosini xalqchil g`oyalar, umumbashariy qarashlar tashkil etadi.

2. Ona xalqimizning hayotida bo`lib o'tgan real tarixiy voqealari va hodisalar , jang-u jadallar va ijtimoiy munosabatlar jangnoma dostonlarning yaratilishiga asos bo'lgan. Dostonda sodir bo'lgan voqealar XVI asrda Xorazmda bo'lgan voqealar ta'sirida yaratilgan deb aytish mumkin. Ushbu dostonning qo'lyozma va toshbosma nusxalarini qiyosiy o'rgangan folklorshunos olimlar ham buni ta'kidlab o'tishgan. Dostonga Xorazmning o'sha paytdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga oid ko'pgina ma'lumotlar singdirib yuborilgan.

XVI asrda Xorazm aholisining shoh Ismoil qo'shinlariga qarshi kurashi va ularga qarshi kurashda Ebarson va Belbarsxon boshchiligidagi qavmning ularga yordam berishi kabi voqealar ta'sirida doston syujeti yuzaga kelib ,uning yaratilishiga asos bo'lgan. Dostonning dastlab og'zaki ,keyinchalik yozma ,toshbosma variantlari vujudga kelgan. Ushbu doston hatto nemis tiliga ham tarjima qilingan.

3.Dostonning syujet qurilishi va bir qator xarakterli detallari faqatgina "Alpomish" dostoni bilangina mushtaraklik hosil qiladi. "Yusuf va Ahmad" dostoni syujetining dastlabki shakli Orolbo'yi epik arealining eng qadimiy va boy an'analaridan biri bo'lgan Xorazm dostonchilik an'anasida, qahramonlik dostonlarining bevosita ta'sirida yuzaga kelgan . Bunday deyishimizga sabab shuki, jangnoma dostonlarning syujetining shakllanish jarayonida xalq baxshilari o'zlarining epik xotirasida mavjud bo'lgan materiallardan unumli foydalangan.

"Yusuf va Ahmad" dostonining g'oyaviy mazmuni quyidagicha ifodalash mumkin. Vatanparvarlik va ona vatanga bo'lgan ulkan muhabbatni kuylash ,adolat va haqiqat tantanasini tarannum etish, pok sevgi va sadoatni ulug'ash, ona yurt daxlsizligi , osoyishtalik, erk , baxt va farovonlik uchun kurash g'oyasi tashkil etadi. "O'n bir ming uyli qavm" ning Xorazmga ko'chib kelishi millatning birdamligi va hamjihatligi yo'lida olib borgan ishlarining epik talqini hisoblansa, qahramonlarimizning Go'zalshohga qarshi kurashda ko'rsatgan jasorati buyuk ajdodlarimizning yurt ozodligi va farovonligi yo'lidagi mardligining ifodasidir.

4. Doston to'laligicha xalqona ruh va tarixiy mavzuda yaratilganligi yaratilganligi uchun unda arxaik ya'ni tarixiy so'zlar juda kop o'rnlarda ishlatilgan. Bunday so'zlar dostonning ta'sirchanligini oshirish bilan birga unda davr koloritini berishda asosiy o'rinni egallagan. (Masalan ,nuqra –kumush)

Bunday so'zlarni qo'llash jarayonida qahramon nutqi individual shaklni olgan .Dostonni har tomonlama o'rganish jarayonida ularning miqdori ko'pligi sababli lug'at shakliga keltirishga harakat qilindi.

Dostonda shevaga xos so'zlarning salmoqdorligi sezilarli darajada ko'p, bunga sabab qilib, doston Xorazm vohasida yaratilganligini aytishimiz mumkin.(haylo, buytib, manikay kabi)

5. Doston matniga har ibora yoki xalqimizda o'ziga xos tarzda qo'llanilib, ibora shakliga kirib qolgan so'zlar yoki gaplar mahorat bilan singdirilgan. Ular ayni paytda qahramonlar ruhiy holati va ichki dunyosini ko'rsatib berishga xizmat qilgan. Ba'zi o'rnlarda esa ayni paytdagi hodisalar izohi va tahlilining osonlashishi va tushunarli bo'lishiga xizmat qilgan desak mubolag'a bolmaydi.

Har bir ibora, maqol qahramonlar nutqiga mahorat bilan singdirib yuborilgan. Qo'llangan ushbu vositalar orqali qahramon ruhiyati va xarakteri ochib berilgan. Yusuf va Ahmadning tog'asi bilan bolgan janjal haqida odamlar gapirib malomat qilmasligi uchun, yomon ayg'ir enasiga chopadi degan xalqona so'zni aytib, go'yoki barcha aybni o'z bo'ynilariga olishadi.

6. She'riy san'atlardan foydalanish asarning ta'sirchanligini oshiribgina qolmay unga badiiy bezak ham taqdim etadi. Dostonda goh she'riy qismida, goh nasriy qismida she'riy san'atlardan uumli foydalanilgan . She'riy san'at turlaridan biri hisoblangan tazod ham har ikka ko'rinishda uchraydi. Doston jangnoma doston hisoblanadi, lekin ko'p o'rinda bu so'zni tabu saqlab, "yomon ish" deb aytishadi.

(Yomon ish elatda paydo bo'libdi) Talmeh san'atidan ham samarali foydalaniladi, jumladan Rustam, Ali, Chingizzon, Haydar, Hotam kabi tarixiy shaxslar dostonda esga olinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I.Normativ – huquqiy hujjatlar, siyosiy adabiyotlar:

1. Каримов Юксак маънавият – уенгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. – 174 б.

2. Каримов И.А. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. – Т: Ўзбекистон, 2010. – 40 б.

II.Darslik, o'quv qo'llanmalar, monografiya va risolalar:

3. Жуманазаров У. Жасорат ва садоқат талқини. – Т.: F.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. – Б.18-30.

4. Жуманазаров У. Ўзбек фольклори ва тарихий воқелик. – Т.: Фан, 1991. – 144 б.

5. Жуманиёзов Р. “Юсуф ва Аҳмад” достонининг варианatlари // Адабий меросга оид тадқиқотлар. – Тошкент, 1986.

6. Жуманиёзов Р. Донг қозонган достон. – Тошкент, 1993. – Б.15.

7. Жуманиёзов Р. Халқ ижоди – ҳақ ижод. – Тошкент: Мерос, 1993.

8. Жўраев М. Ўзбек фольклорида “куш қайи” ёки “долға ҳисоби” билан боғлиқ фенологик қарашлар // Ўзбек фольклоршунослиги масалалари. 2-китоб. – Тошкент: Фан, 2010. – Б.67-82).

9. Зарифов Ҳ. Ўзбек фольклори. – Тошкент: Ўздавнашр, 1939. – Б.200-206.

10. Мирзаев Т. Халқ баҳшиларининг эпик репертуари. – Т.: Фан, 1979. – 152 б.

11. Мирзаев Т., Саримсоқов Б. Достон, унинг турлари ва тарихий тараққиёти // Ўзбек фольклорининг эпик жанрлари. – Т.: Фан, 1981. – Б.9-61.

12. Сайдов М. Ўзбек достончилигига бадиий маҳорат. – Тошкент: Фан, 1969. – Б.53.

13. Саримсоқов Б. Ўзбек адабиётида саъж. – Т.: Фан, 1978. – 152 б.

14. Сафаров О. Ўзбек халқ болалар поэтик фольклори. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985. – Б.92.

15. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. Darslik. – Toshkent: Musiqachi, 2010. – 308 б.

16. Ўзбек фольклорининг эпик жанрлари. Ўзбек халқ ижоди бўйича тадқиқотлар. 7-китоб. – Т.: Фан, 19981. – Б.18-20.

17. Навоий асарлари лугати. – Тошкент, 1974. – Б.249.

18. Ўтаев Ў., Отаёр. Дунёга тенгдош хазина. Эсселар, адабий ўйлар. – Т.: Ёзувчи, 1994. – 111 б.

19. Кўшмоқов М. Бахшилар хазинаси. Адабий-танқидий мақолалар. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – Б.28-39.

III. Ілмій журнaldagi maqolalar

20. Бобоев М. Ўзбек қаҳрамонлик эпосидаги кўп қатламлилик ва тарихийлик. – Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент. – 1988. – №2. – Б.52-54.

21. Ёрматов И. "Алпомиш" достонида далиллаш ва шартлилилк. – Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент. – 1992. – №2. – Б.27-31.

22. Жуманиёзов Р. “Юсуф ва Аҳмад” достонининг генезисига доир // Адабий мерос. – 1989. – 4-сон. – Б.56-60.

23. Жуманиёзов Р. “Юсуф ва Аҳмад” достони ва унинг ўғуз ёдномалари билан муносабати. – Ўзбек тили ва адабиёти. – 1990. – 3-сон. – Б.46-50.

24. Зуннунов Т. Халқ достонларида муболагаларнинг айrim хусусиятлари. – Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент. – 1973. – № 4. – Б.61.

25. Мирзаев Т. Ўзбек халқ достончилик ижодига ёзма адабиётнинг таъсири. – Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент. – 1970. – №5. – Б.51-55.

26. Нурмонов Ф. Хизр образи генезисига доир айrim мулоҳазалар. – Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент. – 2004. – 2-сон. – Б.51-54.

27. Саримсоқов Б. Халқона сатрларда. – Фан ва турмуш. – Тошкент. – 1983. – № 5. – Б.18.

28. Тилавов Н. Дараларни гумбирлатган дўмбира. – Шарқ юлдузи. – Тошкент. – 1988. – № 12. – Б.52-55.

29. Тўлаков И. Халқ достончилигига наср ва назм анъаналари. – Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент. – 1978. – № 1. – Б.79-81.

30. Ўтаев Ў. Бахшининг икки дурданаси. – Мулоқот. – Тошкент. – 1995. – № 5. – Б.12.

31. Қаҳхоров А. Достон жанри ҳақида. – Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент. – 1981. – № 6. – Б.37-41.

32. Кўлдошева С. "Алпомиш" достонидаги ўхшатишларнинг гоявий-эстетик функцияси. – Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент. – 1986. – №1. – Б.47-52.

IV. Badiiy adabiyotlar:

34. “Юсуф билан Аҳмад” (ўзбек халқ достони) / Айтувчилар: Мухаммадқул Жонмурод ўғли Пўлкан ва Фозил Йўлдош ўғли; Ёзиб олувчи: Ҳоди Зариф. Нашрга тайёрловчи: Б.Саримсоқов;mas’ul muharrir To’ra Mirzayev: Tahrir hay’ati : Turob To’la va.boshq.-T.:Adabiyot va san’at nashriyoti,1987.400-bet. (O’zbek xalq og’zaki ijodi . Ko’p tomlik)

V. Dissertatsiya va avtoreferatlar:

35. Джуманиязов Р. Народный дастан “Юсуфбек и Ахмадбек” и его исторические основы. АКД. – Ташкент, 1991.

36. Раҳматов Й.Ф. Тарихий достонларда тарихий шахс образининг эпик талқини. (“Ойчинор” ва “Шайбонийхон” достонлари мисолида): Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Т., 2009. – 26 б.

VI. Internet saytlari:

37. www.ziyouz.com

38. www.google.uz

Mahamadjonova Odinaxonning ilmiy nashrlarda chop etilgan ilmiy ishlari ro'yxati.

Nº	Ilmiy ishning nomi	Jurnal, to'plam (yil,nashr)	Betlar soni
1.	“Yusuf va Ahmad” dostonida qo'llanilgan maqollar.	“Oriental art culture”ilmiy-metodik jurnali, “O’zbekistonda ilm-fan va ta’lim konfirensiyasi. 26-may, 2020-yil	3
2.	“Yusuf va Ahmad” dostonidagi badiiy san’atlarning estetik vazifalari”	“Yoshlarning innovatsion faolligini oshirish, ma’naviyatini yuksaltirish va ilm-fan sohasidagi yutuqlari” mavzusidagi 3-sonli respublika ilmiy-online konfirensiya. 31-avgust, № 3/2020	3
3.	“Yusuf va Ahmad” dostonining jangnoma doston sifatidagi o’ziga xos xususiyatlari.”	“Образование и наука в XX веке” Выпуск №10(том 4) (январ, 2021)	6
4.	“Yusuf va Ahmad” dostonida tush motivining o’ziga xos ahamiyati”	“Yangi O’zbekistonda ilm-fan va ta’lim ilmiy-metodik jurnal (№ 3 20.05.2021)	3